

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Filologiya fakulteti dekani

_____ f.f.n. SH.Nuriddinov

“_____” _____ 2016

“5120100 –Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)” ta‘lim yo‘nalishi
IV-bosqich talabasi

XAYRULLAYEVA DILAFRUZNING

**QODIR BAXSHINING “KELINOY YOKI NORGULOY”
DOSTONIDA QO‘LLANGAN O‘XSHATISHLARNING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi talaba _____ D.Xayrullayeva

Ilmiy rahbar _____ f.f.n. E.Jabborov

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek tilshunosligi kafedrası

mudiri _____ f.f.n. E.Jabborov

“_____” _____ 2016

Qarshi - 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘XSHATISHLARNING O‘RGANILISHI

1.1. O‘zbek tilida o‘xshatishlar va ularning o‘rganilishi.....	6
1.2. O‘xshatishlarning tarkibiy uzvlari haqidagi qarashlar.....	16
1.3. O‘xshatishlarning tasnifi masalasi.....	20
1.4. O‘xshatishlarning yuzaga chiqishida fe’llarning o‘rni.....	29
Bob bo‘yicha xulosa.....	32

II BOB. QODIR BAXSHINING O‘XSHATISH UZVLARINI TANLASHDAGI BADIY MAHORATI

2.1. Baxshining o‘xshatish uzvlarini tanlashdagi mahorati.....	34
2.2. Doston matnida qo‘llanilgan o‘xshatish uzvlari tasnifi.....	38
Bob bo‘yicha xulosa.....	55

XULOSA VA TAKLIFLAR.....	56
---------------------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	58
--	-----------

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Respublikamiz Prezidenti I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida yosh avlod ma’naviyatini shakllantiruvchi vositalar aniq ko’rsatib berilgan. Ana shunday vositalardan biri sifatida xalq og’zaki ijodi ekanligi qayd etilar ekan, xalqimiz o’tmish madaniyatining noyob durdonasi sanalgan “Alpomish” dostoni va uning yoshlar kamolotiga ta’siri xususida quyidagilarni ta’kidlaydilar: “Shu ma’noda, xalq og’zaki ijodining noyob durdonasi bo’lmish “Alpomish” dostoni millatimizning o’zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o’tib kelayotgan qahramonlik qo’shig’idir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo’lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shoh bayti, desak, to’g’ri bo’ladi. Bu mumtoz asarda tarix to’fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o’zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag’rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini o’z ifodasini topgan.

Shu bois “Alpomish” dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo’y bo’lishga, o’z yurtimizni, oilamiz qo’rg’onini qo’riqlashga, do’stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan ximoya qilishga o’rgatadi”¹.

Respublikamiz Prezidenti boshqa bir ma’ruzalarida “Baxshi-shoirlar o’z xalqining biyron tilidir. Ular yurtimizda doimo “Baxshili el - yaxshili el” deb ta’riflanadi. Qodir shoir va Shoberdi baxshi kabi dostonchilarning nomlarini e’tirof bilan tilga olamiz”, - deb ta’kidlaydilar.

Muhtaram Prezidentimizning bu e’tiroflari, bizningcha, xalq og’zaki poetik ijodining barcha sara namunalariga ham tegishlidir. Bu esa xalq poetik og’zaki ijodini filologik nuqtai nazardangina emas, balki falsafiy, pedagogik va psixologik yo’nalishlarda ham tadqiq etishni kun tartibiga qo’yadi.

¹ Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat. 2008. 32-33-betlar.

O'zbek tilining qadimiy va boy tillardan biri ekanligini yaxshi bilamiz. Ana shu tilimizning jonli shakli va shamoyili bevosita xalq dostonlari, afsona va asotirlarida bo'y ko'rsatib turibdi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "...ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur"¹.

Prezidentimiz fikrlaridan kelib chiqib ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligi fani oldida hali hal etilishi kerak bo'lgan muammolar juda ko'p. Ana shu muammolardan biri xalq dostonlari tilini o'rganish masalasidir. Ayniqsa, deyarli filologiya fanida tadqiqot manbai sifatida tanlanmagan va o'rganilmagan qashqadaryolik baxshi-shoir Qodir baxshi Rahimov dostonlari tili, uslubi va lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish o'zbek tilshunosligi fani olida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari. Bitiruv-malakaviy ishning asosiy maqsadi Qodir baxshi Rahimovning "Kelinoy yoxud Noguloy" dostoni matnida qo'l-lanilgan o'xshatishlarning strukturasi, lug'aviy-ma'naviy tabiati, o'xshatishlarni yuzaga chiqaruvchi vositalar, baxshining o'xshatishlardan foydalanish mahoratini yoritishdan iborat. Kuzatilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan:

- o'zbek tilshunosligida o'xshatishlarga bag'ishlangan ishlarni o'rganish;
- Qodir baxshi Rahimov dostonida qo'llanilgan o'xshatishlarni aniqlash, jahon tilshunosligi va o'zbek tilshunosligi an'analari asosida ularni tasniflash;
- o'xshatish uzvlari tahliliga bag'ishlangan ishlarni tahlil etish va shu asosda baxshi dostonida qo'llanilgan o'xshatish uzvlari xususida fikr yuritish;
- Qodir baxshi Rahimovning o'xshatishlardan foydalanish mahoratiga baho berish.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilidagi o'xshatishlar R.Qo'ng'urov, M.Mukarramov, B.Umurqulov, R.Suvonova, R.Rasulov,

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

I.Umarov, I.Yormatov, M.Yoqubbekova, M.Yo‘ldoshev va boshqa tilshunolar tomonidan turli darajada tadqiq etilgan.

Xalq og‘zaki poetik ijodida qo‘llanilgan o‘xshatishlar I.Yormatovning doktorlik dissertatsiyasida, M.Yoqubbekovanning o‘zbek xalq qo‘shiqlari lingvopoetikasi tadqiqiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida, M.Yo‘ldoshevning badiiy matn lingvopoetikasiga bog‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida va bir qator darslik va qo‘llanmalarida, shuningdek, G.Jumanazarovanning Fozil Yo‘ldosh dostonlari tilida qo‘llanilgan o‘xshatishlarning lingvopoetikasiga bag‘ishlangan kitobida o‘rganilgan. Lekin Qashqadaryo dostonchilik maktabining yirik vakili sanalgan Qodir baxshi Rahimovning “Kelinoy yoki Norguloy” dostonida qo‘llanilgan o‘xshatishlar tadqiqot manbai sifatida haligacha tanlanmagan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Qodir baxshi Rahimov “Kelinoy yoxud Norguloy” dostonida qo‘llanilgan o‘xshatishlar ilk marta ilmiy asosda tadqiq etildi.

Tadqiqot predmeti va obykti. Tadqiqot ishini yoritish uchun badiiy matnning lingvopoetik tadqiqotiga bag‘ishlangan ishlar, shu jumladan xalq baxshilari dostonlari tili tahliliga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar natijalaridan keng foydalanildi. Tadqiqot obykti sifatida Qodir baxshi Raximovdan yozib olingan va nashr etilgan “Kelinoy yoki Norguloy” dostoni olindi.

Ishning ilmiy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ish natijalari uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘qitilayotgan o‘zbek tili va adabiyoti fanlari uchun manba vazifasini o‘tay oladi. Shuningdek, ish natijalari o‘zbek tilshunosligining stilistika, matn lingvistikasi, lingvopoetika singari sathlari uchun material bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ishning hajmi va tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki maxsus bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 59 sahifani tashkil etadi.

I BOB. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘XSHATISHLARNING O‘RGANILISHI

Ma’lumki, badiiy matnda qo‘llanilgan va badiiy tasvir vositasi sanalgan o‘xshatishlar ko‘pdan buyon filologiya ilmining asosiy tadqiqot unsurlaridan biri sifatida qarab kelinadi. Adabiyotshunoslikda ham, tilshunoslikda ham bu sohada qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Keyingi yillarda esa xalq poetik ijodi namunalarida qo‘llanilgan o‘xshatishlarni tadqiq etish ishiga e’tibor qaratilayotgani va bu borada bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgani, monografiyalar chop etilgani diqqatga loyiqdir. Mazkur ishlarning barchasida o‘xshatishning tarkibiy qism (uzv) lari, o‘xshatishni yuzaga chiqaruvchi vositalar, o‘xshatishning badiiyat ilmida tutgan o‘rni singari ko‘plab masalalar xususida so‘z yuritiladi. Bu borada shuni ham ta’kidlash joizki, baxshi shoirlarning ijodi ko‘pincha bir-birini takrorlamaydi. Bitta dostonni bir necha baxshi aytishi mumkin, lekin ular repertuaridagi bu doston nafaqat syujetining o‘zgaligi bilan emas, balki shoirning so‘z qo‘llash mahorati bilan ham tubdan farqlanadi. Shunday ekan, baxshi shoirlar ijodida qo‘llangan tasviriy vositalarni alohida o‘rganish va shu orqali har bir baxshi shoirning badiiy mahoratiga baho berish filologiya ilmi oldida turgan muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Mazkur ishda Qashqadaryo dostonchilik maktabining ko‘zga ko‘ringan namoyandasi Qodir baxshi Rahimovning “Kelinoy yoxud Norguloy”□ dostoni matnida qo‘llanilgan o‘xshatishlarning ayrim xususiyatlari haqida fikr yuritamiz va shu asosda taniqli baxshining so‘z qo‘llash mahoratiga baho berishga harakat qilamiz.

1.1. O‘zbek tilida o‘xshatishlar va ularning o‘rganilishi

O‘xshatish deb “ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq,

konkretroq, bo‘rttiribroq ifodalash”ga aytiladi. O‘xshatishlar eng qadimiy tasviriyy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta’minlashda foydalanib kelinadi. Adabiyotlarda har qanday o‘xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to‘rt unsur nazarda tutiladi, ya’ni:

- 1) o‘xshatish subyekti;
- 2) o‘xshatish etaloni;
- 3) o‘xshatish asosi;
- 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichlari.

Masalan: *Qosim quyonday qo‘rqoq bola*, deyilsa, Qosim – o‘xshatish subyekti; quyon – o‘xshatish etaloni; qo‘rqoq – o‘xshatish asosi; -day – o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Tilshunos olim Munavvara Yoqubbekova o‘zbek xalq qo‘shiqlari lingvopoetikasiga bag‘ishlangan monografiyasida o‘xshatishning yana bir unsuri “o‘xshatish maqsadi” ham mavjudligini ta’kidlagan¹.

O‘xshatish etaloni o‘xshatish konstruksiyaning poetik qimmatini, estetik salmog‘ini belgilaydi. O‘xshatish etaloni qanchalik original bo‘lsa, o‘xshatishli qurilma ham shu darajada ohorli bo‘ladi. Badiiy matndagi o‘xshatishli qurilmalar tekshirilganda ularni an’anaviy va xususiy-muallif o‘xshatishlari sifatida tasniflash kerak bo‘ladi. An’anaviy o‘xshatishlar og‘zaki nutqda ko‘p ishlatiladigan, shu sababdan ta’sirchanligini yo‘qotgan o‘xshatishlardir. Masalan: *tulkiday ayyor, toshday qattiq, yuzlari oydek, ko‘zlari charosdek, qo‘yday yuvosh, otning qashqasiday ma’lum, quyonday qo‘rqoq* kabilar. Aslida ko‘p takrorlanishi tufayli “siyqasi chiqqan” deb baholanadigan bunday qurilmalarni tasviriylilik, obrazlilik maqsadiga xizmat qildirish yozuvchining mahoratiga bog‘liq. Xususiy-muallif o‘xshatishlari yozuvchining o‘z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o‘xshatishlaridir. Bunday o‘xshatishlarda

¹ Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. – Toshkent, 2008. 84-bet.

originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi. Har qanday o'xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavdalantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Masalan: *Burungi so'fidan, yaqindagina kelib bir hafta yotib ketgan so'fidan asar yo'q. Uning rangi machitning jaydari shamidek sap-sariq... go'yo kasaldan yaqindagina bosh ko'targan* gapini olib ko'raylik. Keltirilgan misolda so'fining, ruhoniylar kishining so'ngan, sarg'aygan rangi masjidning jaydari shamiga o'xshatilgan. Ta'kidlash lozimki, yozuvchi tasvirdagi holat, qahramon ruhiyati uchun favqulodda muvofiq o'xshatish etaloni tanlagan, ya'ni qahramon – ruhoniylar, sham – masjidniki, qahramon – g'arib, dardmand, sham – jaydari, arzonbaho, qahramon tuganmas dard bilan adoyi tamom bo'lib bormoqda, sham – yonib tugashning ham ramziylar ifodachisi. Sap-sariq sifati bilan ifodalangan o'xshatish asosidagi belgi benihoya quyuqlashib katta bir dard shaklini olgan.

O'xshatishga asoslangan ma'no ko'chish turlari ham mavjud bo'lib, ulardan biri metafora deb yuritiladi. Bir-biriga aloqador bo'lgani bois metaforaga ham qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Metafora ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo'lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda "istiora" deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. "Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo'yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi". Faqatgina ma'lum bir so'zning ma'no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: odamning oyog'i – stolning oyog'i, odamning ko'zi – uzukning ko'zi,

ko‘ylakning etagi – tog‘ning etagi kabi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, ya’ni borliqni subyektiv munosabatini qo‘shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo‘yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg‘ularini ta’sirchan, yorqin bo‘yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma’no mavjud bo‘ladi. “Metafora orqali ma’no ko‘chishida konnotativ ma’no yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshak, qo‘y, it, bo‘ri, tulki, yo‘lbars, boyo‘g‘li, musicha, burgut, lochin, qaldirg‘och, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomlari bo‘lgan leksemalar mavjudki, bu so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari, ko‘chma ma’noda juda keng qo‘llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo‘yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko‘zi o‘tkirligi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko‘chiriladi, natijada konnotativ ma’no yuzaga keladi hamda matnning ta’sirchanligi oshadi”¹.

Metafora bilan o‘xshatish konstruksiyaning o‘zaro farqi haqida tilshunolarimiz o‘zlarining fikrlarini aytib o‘tishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o‘tiladi:

1. O‘xshatishda so‘zlar o‘z ma’nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so‘zlar doimo ko‘chma ma’noda bo‘ladi.
2. O‘xshatishda ikki komponent - o‘xshatiluvchi obyekt va o‘xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo‘ladi.
3. O‘xshatishlarda kengayish imkoniyati ko‘p, bir gap hatto abzats darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so‘z yoki so‘z birikmasidan iborat bo‘ladi.

¹ Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. - Toshkent, 2008. 88-bet.

4. O‘xshatishda maxsus ko‘rsatkichlar bo‘ladi: -dek, -day, -simon, -larcha, kabi, singari, o‘xshamoq va boshqalar. Metaforalarda bunday ko‘rsatkichlar bo‘lmaydi.

Jahon tilshunosligida, shu jumladan o‘zbek tilshunosligida o‘xshatishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar bisyor. Quyida ularning ayrimlari xususida to‘xtalishga harakat qilamiz.

O‘xshatish va u bilan bog‘liq san’atlar juda qadimdayoq olimlarni qiziqtirib kelgan. Yunon falsafasining namoyandasi sanalgan, Sharqda birinchi muallim sifatida e’tirof etilgan Arestotel asarlarida o‘xshatish (mimesis) san’ati uch jihatdan farqlanishi ta’kidlab o‘tiladi:

- 1) tasvirlashning turli vositalari bilan;
- 2) tasvirlash predmeti bilan;
- 3) rang-barang noo‘xshash usullar bilan¹.

Aristotelning fikricha, o‘xshatish poetik san’atining kelib chiqishiga ikkita tabiiy sabab bo‘lgan. Ular quyidagilardan iborat: “birinchidan, gavdalantirish, o‘xshatish insonga bolalikdan xos bo‘lgan xususiyat. Inson boshqa jonli mavjudotlardan o‘xshatish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ham farqlanadi, hatto dastlabki bilimlarini u o‘xshatishdan oladi va bu jarayon samaralari barchaga huzur bag‘ishlaydi. Buni quyidagi faktlar ham isbotlaydi: biz haqiqatda yoqimsiz ko‘ringan narsalarga, masalan, jirkanch va murdalar tasviriga zavq bilan boqamiz. Buning sababi shundaki, bilim olish faqat faylasuflargagina emas, balki boshqa kishilarga juda ham yoqadi, farq shundaki, oddiy odamlar bilish uchun tomosha qilmaydilar. Ular tasvirga zavqlanib qaraydilar, chunki unga boqib “manovi narsa bunday ekan”, deb mulohaza yuritishni o‘rganadilar. Agar o‘xshashi tasvirlangan narsani avval ko‘rmagan bo‘lsa, o‘xshatishdan emas, balki bichim, bo‘yoq yoki shunga o‘xshash boshqa narsadan zavq tuyadilar.

¹ Aristotel. Poetika. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. – 240-bet.

Zeroqi, o'xshatish garmoniya va ritm singari qadimdanoq odamlarning tabiatiga xos xususiyatlar, odamlar qadimdanoq tabiatan o'xshatishga qobiliyatlidirlarki, ular buni oz-ozdan taraqqiy ettira borib, badiha she'rlardan haqiqiy poeziyani yuzaga keltirganlar"¹.

Ko'ramizki, inson boshqa jonzotlardan o'xshata olish qobiliyatiga ega ekanligi bilan farqlanadi. Shuning uchun ham olimlar insonning dastlabki bilimlari o'xshatish asosida egallaganlar deb fikr yuritadilar. Balki shu jihati bilan o'xshatish umumjahon fanlari tarixida muhim o'rin tutadigan hodisa sanaladi. Ayrim lug'atlarda ham o'xshatishning inson tafakkuridagi roli haqida o'rinli va asosli ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, filsofiya lug'atida quyidagilar bayon etilgan: "inson ongidagi bir narsaga xos belgi, jarayon yoki mohiyatni qiyos natijasida boshqa narsada ko'ra olish, tasavvur qilish qobiliyati insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy tadriji uchun ulkan imkoniyat bergan (masalan, bug' mashinasi, shamol, suv tegirmoni, shprints va boshqalarning yaratilishi). Shunday ekan, o'xshatish tafakkurning yangilikni qidirish va kashf etish borasidagi eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi, O'xshatishning bu xususiyati uni barcha fanlar uchun zarur kategoriyaga aylantiradi. O'xshatishning "konkretlashtirish funksiyasi" esa falsafa, logika, tilshunoslik, badiiy adabiyotda atroflicha izohlanib kelinadi"².

O'xshatish adabiyotshunoslikning ham, tilshunoslikning ham o'rganish obyekti, har ikkalasida badiiy tasviriy vosita sifatida baholanadi. Masalan, ba'zi olimlar: "ilmda adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan u tropning bir ko'rinishi sifatida ifodalanish usullari, struktural tarkibi sifatida o'rganilsa, tilshunoslar uni gapning tarkibiy komponenti ekanligi, umuman, til hodisasi sifatida o'rganadilar", -deb ta'kidlaydilar. Ushbu fikrga yaqin fikrlarni boshqa manbalarda ham uchratish mumkin. Masalan, tilshunos M.Mukarramovning ishida shunday yoziladi: "Adabiyotshunoslikda tasviriy vositalarning badiiyligi,

¹ Aristotel. Poetika. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 11-12-betlar.

² Философский словарь. –М.: Полиздат, 1991. – 92 стр.

obrazlilikda tutgan o'rni o'rganilsa, tilshunoslikda material sifatida qanday leksik va grammatik vositalar bilan ifodalanishi, ayniqsa, muhimdir. Bu kategoriyalarning ikki aspekti bor"¹.

“O‘zbek tili stilistikasi” darsligida o‘xshatishga sintaktik hodisa sifatida qaraladi va quyidagicha izohlanadi: “Tropning bir ko‘rinishi sifatida o‘xshatish adabiyotshunoslikning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Uning ifodalanish usullari, shu bilan birga, gapning tarkibiy komponenti ekanligi va nihoyat, umuman, shu til fakti sifatida tilshunoslikning ham obyekti sanaladi”².

R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, Y.Tojiyevlarning “Nutq madaniyati va uslubiylati asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida “narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik”ka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, aniqroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berishi o‘xshatish deyiladi. U, asosan nutqiy hodisa hisoblanadi”, deb ta’kidlanadi va o‘xshatishning uzvlari quyidagicha ko‘rsatiladi:

- 1) o‘xshatilgan narsa;
- 2) o‘xshatilayotgan narsa;
- 3) o‘xshatish asosi belgi;
- 4) o‘xshatish vositasi³.

Shuningdek, bu qo‘llanmada o‘xshatishlarning rang-barangligi ta’kidlanib, uning ibora aborotlari, erkin gaplar, izohlovchi-izohlanmish, frazeologik birikma, chiqish kelishigi affiksi, turli affikslar, so‘z turkumlari, to‘liqsiz fe‘l kabi bir qancha vositalar bilan shakllanishi mumkinligi haqida ham keng ma’lumotlar beriladi.

Akademik A.Rustamov “Navoiyning badiiy mahorati” nomli monografiyasida o‘xshatishning vazifasi tasvirlashning sifat va vazifasini ravshanlashtirish, o‘tkirlashtirishdan va shu yo‘l bilan o‘quvchi va tinglovchining

¹ Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatishlar. –Toshkent: Fan, 1976. - 239-bet.

² Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1980. - 239-bet.

³ Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiylati asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 99-bet.

zavqini o'yg'otish, hissiyotlarini qo'zg'atishdan iboratligini ta'kidlaydi. Olim o'xshatish uzvlarni quyidagi uchga ajratadi:

- a) o'xshatilmish,
- b) o'xshovchi,
- v) o'xshamish.

A.Rustamovning fikricha, o'xshatilmish – o'xshatish yo'li bilan tasvirlana-yotgan narsa yoki hodisa. O'xshovchi – o'xshatish uchun vosita bo'lgan narsa yoki hodisa. O'xshamish – o'xshatilmish bilan o'xshovchi orasidagi umumiylik¹.

Tilshunos N.Mahmudov o'xshatishni ikki yoki undan ortiq predmetni ular orasidagi o'xshashlik yoki farqli tomonlarini aniqlash maqsadida qiyoslash keng tarqalgan logik pryomlardan biri ekanligini alohida ta'kidlaydi va bu qiyosiy qurilmaning to'rtta uzvi mavjudligini ko'rsatadi:

- 1) o'xshatish subyekti simvoli,
- 2) o'xshatish etaloni simvoli,
- 3) o'xshatishning shartli ko'rsatkichi,
- 4) o'xshatish asosining simvoli².

O'xshatishlar bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borgan tilshunos M.Mukarramovning "O'zbek tilida o'xshatishlar" nomli kitobida o'xshatish hodisasining tabiati, ta'rifi kabi bir qator masalalar xususida ma'lumot berilar ekan, o'xshatish uzvlarini ham sanab o'tadi. Olim o'xshatish uzvini quyidagi uch turga ajratadi:

- o'xshatiluvchi obyekt,
- o'xshovchi obraz,
- o'xshatma belgi³.

Badiiy tasvir vositalari haqida tadqiqotlar o'tkazgan M.Mukarramov bu vositalarni ikki asosiy guruhga ajratadi:

¹Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – 65-bet.

²Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik assimetriya. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 66-bet.

³Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatishlar. –Toshkent: Fan, 1976. - 6-bet

- a) o'xshashli ko'chimga asoslangan badiiy tasvir vositalari;
- b) o'xshashsiz ko'chimga asoslangan badiiy tasvir vositalari¹.

Olim o'xshashli ko'chimga asoslangan badiiy tasvir vositalariga o'xshatish, sifatlash va jonlantirishni kiritisa, o'xshashsiz ko'chimga asoslangan badiiy tasvir vositalariga istiora, metonimiya, sinekdoxani kiritadi. O'xshatishning har ikkala turini ham o'ziga xos obyektlari va bir-birini takrorlamaydigan xususiyatlari mavjud. Masalan, o'xshashsiz ko'chimga asoslangan badiiy tasvir vositalarida nominativ emas, konnatativ ma'no tovlanishlari mavjudligi kuzatiladi.

O'xshatish masalasi xalq poetik ijodi namunalarini lingvistik aspektida o'rgangan tilshunoslarning ishlarida ham u yoki bu darajada yoritiladi. I.Yormatov "Alpomish" dostonining poetikasini o'rganish jarayonida o'xshatishlarning tarkibini uchta birlikdan tashkil topganini ta'kidlab o'tadi. Bular:

- o'xshatilmish (subyekt);
- o'xshovchi (etalon);
- o'xshash (aktant).

Shuningdek, o'xshatish vositasini ham bu uch birlikning yordamchi uzvi sifatida ko'rsatadi: "O'xshatish uchta asosiy o'xshatilmish (o'xshovchi va o'xshamish) hamda bitta yordamchi (o'xshatish vositasi) uzvlaridan tashkil topadi", degan xulosani ilgari suradi.

O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetikasini maxsus o'rgangan M.Yoqubbekova esa o'xshatishlarning struktural-kompozitsion, leksik va grammatik, badiiy-estetik (poetik) tabiatini izchil yoritishga harakat qiladi. Olima o'zining monografik ishida olimlarning o'xshatishlar tarkibi (uzvlar) haqidagi fikrlarini keng sharhlaydi va ularga o'z munosabatini bildiradi. Uning fikricha, o'xshatish uzvlari quyidagicha bo'lishi kerak:

- asos,

¹Mukarramov M. Ko'chimlarning o'zaro munosabati. //O'zbek tili va adabiyoti. Jurn., 1976, 5-son, 51-bet.

- timsol,
- vosita,
- belgi¹.

Ko‘rinadiki, olimlar o‘xshatish usulini to‘g‘ri turga ajratgan. Ularning birinchisi o‘xshatish asosiga, ikkinchisi o‘xshatiluvchi narsa (timsol) ga, uchinchi o‘xshatish vositasiga, to‘rtinchisi o‘xshatish belgisiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbek filologiyasida badiiy tasvir vositalarining lisoniy, mazmuniy, uslubiy va poetik xususiyatlari yaxshi o‘rganilgan. Mazkur masala R.Qo‘n-g‘urov, M.Mukarramov, B.Umurqulovlarning asarlarida ancha keng o‘rganilgan bo‘lsa, R.Suvonova, M.Yoqubbekovalarning monografik ishlarida tasviriy vositalarning biri sanalgan o‘xshatishlarga ham o‘rin berilgan. Xuddi shu fikrni I.Yormatov, M.Yo‘ldoshevlarning monografik ishlariga nisbatan ham aytish mumkin. G.Jumanazarovning ishida esa Samarqand dostonchilik maktabining yirik vakili Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlarida qo‘llanilgan o‘xshatishlarning lingvopoetik xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

O‘xshatish – tilshunoslik, adabiyshunoslik, mantiq, falsafa, semiotika, shu-ningdek, fizika, matematika kabi ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar tarixi, madaniyatida tafakkurning yangilikni qidirish hamda kashf etish borasidagi eng muhim o‘rin tutadigan hodisa, aynan ana shu fanlar uchun zarur kategoriya sanaladi. O‘xshatishning bu xususiyati tafakkurning mantiqiy amaliyotlaridan biri ekanligidan, ikki narsa, hodisa yoki tushunchaning biror jihatidan mos kelishiga asoslanganligidan kelib chiqadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ko‘chirma va mulohazalar asosida o‘xshatishni obraz yaratishning eng soddasi deyish mumkin. Chunki unda bir-biriga o‘xshatilayotgan narsa va predmetning nomi qatnashadi. Bunda ularning biri o‘xshatilayotgan predmetni, ikkinchisi o‘xshatish obrazi bo‘lgan predmetni anglatadi. Aynan ana shu holatni boshqacha nomlasak, biri o‘xshatish obyektini,

¹ Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. - Toshkent, 2005.

bir esa o'xshatish obrazini bildiradi. O'zaro o'xshatilayotgan predmetlarni bu jarayonda bog'lab turadigan uzv o'xshatmaga beriladi.

O'xshatish tarkibidagi qurilmalarni matnda o'zini namayon qilib turishi jihatidan, ya'ni sintaktik jihatidan to'liq shakllanishi hisobga olinsa, ularni sintaktik figura sifatida ham qabul qilish mumkin. Agarda sintaktik jihatdan to'liq shakllangan o'xshatish tarkibidan o'xshatish obyekti nomi bilan o'xshatma belgi nomi bilan olib tashlansa, metafora yuzaga kelishi hisobga olinsa, o'xshatishni ko'chimlar qatoriga kiritish mumkin bo'ladi. O'xshatishning bu belgilariga ko'ra, ayrim tadqiqotchilar uni ko'chimlar qatoriga ham, sintaktik figuralar qatoriga ham qo'shmaydilar. O'zbek tilshunosligida ham shunga yaqin qarashlarni kuzatish mumkin. M.Yoqubbekovanning fikricha, o'xshatishlar insonning epik xayoloti va tasavvuriga assotsiativ ta'sir ko'rsatib, tasvir obyektiga nisbatan ma'lum munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ana shunday murakkab tabiati, ya'ni tarkibiy tuzilishi, lisoniy va ma'noviy xossalari xususida o'zbek tilshunosligida bir qator nazariy, ilmiy va ommabop tadqiqotlar amalga oshirilgan¹.

1.2. O'xshatishlarning tarkibiy uzvlari haqidagi qarashlar

O'xshatishlar bo'yicha o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'xshatishlarning tarkibiy uzvlari masalasi ham kun tartibidagi muhim masalalar sirasiga kiradi. Tilshunos olimlarning bu boradagi qarashlari turlicha. Ayrim manbalarda o'xshatish uzvlari uchta deb ko'rsatilsa, boshqa manbalarda to'rtta deb qayd etildai. Bu uzvlarni nomlash masalasidagi qarashlar ham turlicha.

¹ Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. -160 b.; Shu muallif. O'zbek xalq qo'shiqlarida o'xshatish. – Toshkent: Fan, 2003. – 93 b.; Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. – Toshkent: Fan, 1976. – 88 b.

Professor N.Mahmudovning monografik ishida o‘xshatish uzvlari quyidagi to‘tr turga bo‘linishi qayd etilgan:

- 1) o‘xshatish subyekti;
- 2) o‘xshatish etaloni;
- 3) o‘xshatish asosi;
- 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi¹.

O‘xshatish unsurlarini nomlashda ham turli fikrlar bayon etilganini kuzatish mumkin. Ilmiy tadqiqotlarda ular turlicha nomlanganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, A.Rustamov va I.Yormatov singari tilshunoslarning ishlarida birinchi uzv – o‘xshagan narsa, ya’ni o‘xshatish subyekti o‘xshatilmish nomi bilan atalgan bo‘lsa, N.Mahmudov va M.M.Cheremisinalarning ishida qiyos subyekti, M.Mukarra-movning ishida o‘xshatuvchi obyekt, A.Sa’diyning ishida o‘xshatilgan, B.V.Tomashevskiyning ishida predmet, M.A.Shapironing ishida o‘xshatish obyekti, S.L.Nevelovanning ishida qiyoslangan narsa yoki subyekt, M.Yoqub-bekovanning ishida o‘xshatish asosi nomlari bilan atalgan.

O‘xshatishning ikkinchi uzvi o‘xshatilgan narsa, ya’ni o‘xshatish etaloni A.Rustamov va I.Yormatovlarning ishida o‘xshovchi, A.I.Yefimovning ishida o‘xshatish obyekti, N.Mahmudov va M.M.Cheremisinalarning ishlarida qiyos etaloni, M.Mukarramovning ishida o‘xshovchi obraz, A.Sa’diyning ishida unga o‘xshatilgan, B.V.Tomashevskiyning ishida obraz, M.A.Shapironing ishida o‘xshatish obrazi, S.L.Nevelovanning ishida unga qiyos bo‘lgan narsa yoki obyekt, M.Yoqubbekovanning ishida o‘xshatish timsoli atamalari bilan nomlangan.

O‘xshatish tarkibidagi uchinchi uzv – o‘xshash sifat, ya’ni o‘xshatish asosi atamasi A.Rustamov va I.Yormatovlarning ishlarida o‘xshamish, A.I.Yefimovning ishlarida qiyoslash asosi, N.Mahmudovning ishida qiyos asosi, B.V.Tomashevskiyning ishida o‘xshatma belgi, D.Xudoyberganova,

¹ Mahmudov N. O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik assmetriya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984.

M.A.Shapiro, M.Yoqub-bekovalarning ishlarida o‘xshatma belgisi, S.L.Nevelovaning ishida qiyos belgisi kabi atamalar bilan yuritilgan.

O‘xshatishning to‘rtinchi uzvi sanalgan o‘xshatish qo‘shimchalari, ya’ni o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichlari I.Yormatov, D.Xudoyberganova, M.A.Shapiro, M.Yoqubbekovalarning ishlarida o‘xshatish vositasi, N.Mahmudovning ishida qiyoslashning formal ko‘rsatkichi, M.M.Cheremisina va S.L.Nevelovalarning ishlarida o‘xshatishning formal ko‘rsatkichlari kabi atamalar bilan nomlanganini ko‘rish mumkin.

Yuqorida keltirilgan olimlarning tasniflarini o‘rgangan G.Jumanazarova o‘xshatish uzvlarini quyidagi tartibda nomlashni ma’qul ko‘radi:

- 1) o‘xshatish subyekti (asosi);
- 2) o‘xshatish etaloni (timsoli);
- 3) o‘xshatish asosi (belgisi);
- 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi (vositasi)¹.

O‘xshatishlarning tildagi munosabatini ko‘rsatuvchi bunday uzvlarning o‘ziga xos ifodalari mavjud. Masalan, birinchi uzv – o‘xshagan narsa, ya’ni o‘xshatish subyekti (asosi) o‘z nomi bilan o‘xshatilayotgan predmet yoki tushunchaning leksik ifodasi sanaladi. Uni o‘xshatish subyekti (asosi) deb atash mumkin. Buning sababi u biz tadqiq etayotgan va tahlilga jalb etilgan qashqadaryolik taniqli baxshi Qodir Rahimovning “Kelinoy yoxud Norguloy” dostoni matnidagi o‘xshatish hodisasining asosini tashkil etadi. Jumladan, ayni shu obyekt bo‘lmasa, uni hech qachon biror narsaga chog‘ishtirish (qiyoslash) va unga o‘xshash bo‘lgan o‘xshatish etaloni (timsoli) ni tarkib toptirib bo‘lmaydi.

Ikkinchi uzv – o‘xshatilgan narsa, ya’ni o‘xshatish etaloni (timsoli) o‘xshatish subyekti (asosi) ni o‘xshatish uchun xizmat qiladigan, o‘xshovchi obraz (timsol) ning leksik ifodasi sanaladi. Tilshunoslikda uning o‘xshatish

¹ Jumaniyozova G. Xalq dostonlaridagi o‘xshatishlarning lingvopoetik xususiyatlari. –Toshkent: Tafakkur, 2011. 14-b.

etaloni (timsoli) deb atalishiga asosiy sabab shuki, o'xshatish subyekti (asos) ga xos xususiyatlarning ramziy mujassami bo'lib xizmat qiladi. O'xshatish tarkibidagi bu uzvlarning o'ziga xos va boshqalaridan jiddiy ajralib turadigan xususiyatlari mavjud. Tilshunos M.Yo'ldoshev bu xususiyat haqida quyidagicha mulohaza yuritadi: "Har qanday o'xshatishning lingvopoetik asosini bevosita o'xshatish etaloni tashkil etadi. Tasviriy vosita sifatidagi o'xshatishning poetik qimmat, este-tik salmog'ini ham xuddi shu o'xshatish etaloni belgilaydi. O'xshatishning originalligi ayni o'xshatish etalonining originalligiga ko'ra yuzaga keladi"¹.

O'xshatish tarkibidagi uchinchi uzv – o'xshash sifat, ya'ni o'xshatish asosi (belgisi) sanalib, u o'z nomi bilan bir-biriga o'xshatilayotgan narsa, hodisa yoki tushuncha o'rtasidagi o'xshashlik belgisining leksik ifodasidir. Boshqacha qilib ifodalaganda, bu uzvni o'xshatish qurilmasida o'xshatish subyekti (asosi) bilan o'xshatish etaloni (timsoli) o'rtasidagi o'xshatishga sabab bo'lgan umumiylikning ifodasi deyish mumkin. Shuning uchun ham u har doim xalq dostonlari matni tarkibida ikki predmet yoki voqea-hodisa uchun xos bo'lgan umumiy belgi, xususiyat, hodisa yoki harakatni bildirish vazifasini bajarib keldai.

To'rtinchi uzv – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari (vositalari), ya'ni o'xshatish qo'shimchalari, o'xshatish munosabatini ifodalashda faol ishtirok etadigan leksik-grammatik ko'rsatkichlar (birliklar) dir. Bu uzv asosiga ko'ra, o'xshatish qurilmasidagi o'xshatish munosabatini shakllantiruvchi leksik, grammatik, stilistik, semantik elementlar yig'indisidan tashkil topgan bo'ladi.

Bu o'rinda o'xshatish qurilmasidagi har bir uzv leksik, morfologik, sintaktik, stilistik, poetik tabiati semantik mutanosiblikka, yana qo'shimcha ravishda, xalq dostonlari she'riy tuzilishdagi ohangdoshlik va ritmik o'lchovga mos bo'lishi zarurligini ham alohida ta'kidlash lozim. Shu munosabat bilan biz

¹ Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 58-b-bet.

ishimizning keyingi bobida har bir uzvning leksik va grammatik imkoniyatlari Qodir baxshi Rahimov dostoni matnida qanday namayon bo'lishini, qolaversa, baxshi-shoirning so'zdan foydalanish mahoratini ko'rib chiqamiz. Bunday yo'l tutishdan maqsad, tilning tasviriyl vositasi bo'lmish o'xshatishlarda leksik birliklar bilan ifodalangan ikki narsa, hodisa yoki tushuncha bir-biri bilan obrazli tarzda chog'ishtiriladi. Albatta, ayni holat eng avvalo, og'zaki ijodiy improvizatsiya jarayoniga, jumladan, xalq baxshisining epik repertuariga ta'sirini ko'rsatadi, ikkinchi tomondan adabiy tilning grammatik qonun-qoidalariga amal qilinadi.

1.3. O'xshatishlarning tasnifi masalasi

Filologiya, shu jumladan, tilshunoslik ilmda o'xshatishlarning bir necha tasniflari amalga oshirilgan. M.Mukarramov, M.Yo'ldoshev, M.Yoqubbekova, D.Xudoyberganova, G.Jumanazarova singari tilshunos olimlarning tasniflari e'tiborga loyiq. Ular o'xshatishlarni poetik tabiatiga ko'ra, qo'llanishiga ko'ra, tuzilishiga ko'ra, sezgi va tasavvurlar orqali yuzaga kelishiga ko'ra tasnif etadilar. Quyida ularning tasniflarini qisqacha ko'rib o'tamiz.

O'xshatishlarni maxsus monografik tarzda o'rgangan M.Mukarramov ularni sezgilar va tasavvurlar orqali yuzaga kelishi hamda qo'llanishiga ko'ra tasnif etilishini qayd etadi. Olimning ishlarida o'xshatishlar sezgilar va tasavvurlar orqali yuzaga kelishiga ko'ra konkret va abstrakt o'xshatishlarga bo'lingan bo'lsa, qo'llanish jihatiga ko'ra esa an'anaviy (traditsion) va individual o'xshatishlarga ajratilgan¹.

O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlarini monografik tarzda tadqiq etgan M.Yoqubbekova o'xshatishlarni qanday muqoyasaga asoslanganiga, ya'ni qiyoslash usuliga ko'ra analogik va assotsiativ o'xshatishlarga ajratadi. Analogik o'xshatishlarga sezgilar qiyosi asos qilinib,

¹ Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. –Toshkent: Fan, 1976. 25-27-betlar.

shakliga, rangiga, xususiyatiga va harakatiga ko'ra tasniflaydi. Assotsiativ o'xshatishlarda tasavvur qiyosi asos sifatida tabiati va e'tiqodiga ko'ra yuzaga kelgan o'xshatishlar tekshiriladi.

M.Yoqubbekova o'xshatishlarni kelib chiqishi (genezisi) jihatidan ham tasnif etadi. Uningcha, bu belgi asosida o'xshatishlar an'anaviy va favqulodda o'xshatishlarga bo'linadi. Shuningdek, olimaning ishida o'xshatishlar tuzilishiga ko'ra ham tasnif etilgan. Olima o'xshatishlarni tuzilishiga ko'ra sodda, murakkablashgan va murakkab o'xshatishlarga bo'lib o'rganadi¹.

Tilshunos M.Yo'ldoshevning ishlarida o'xshatishlar tarkibidagi etaloni (timsoli) ning original yoki original emasligiga ko'ra an'anaviy va xususiy-muallif o'xshatishlariga ajratib o'rganadi².

Tadqiqotchi D.Xudoyberganovanning ishida o'xshatishlar an'anaviy va original o'xshatishlarga ajratilganini kuzatamiz. Rus tilshunosi A.F.Yefremov an'anaviy o'xshatishlar atamasi o'rnida stereotiv o'xshatish atamasini qo'llaydi.

G.Jumanazarovanning ishida o'xshatishlar kelib chiqishi (genezisi) asosida tasnif etilgan va ular quyidagicha nomlangan:

- 1) an'anaviy o'xshatishlar;
- 2) xususiy-muallif (favqulodda) o'xshatishlari.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, xalq dostonlari tilida qo'llanilgan o'xshatishlarni o'rganishda ularning kelib chiqishiga (genezisiga) ko'ra tasniflash usuli e'tiborga loyiqdir. Biz ham o'zbek tilshunosligida tan olingan tekshirish tamoyillari asosida "Kelinoy yoxud Norguloy" dostonida qo'llanilgan o'xshatishlarni an'anaviy va xususiy-muallif o'xshatishlari kabi ikki turga ajratib o'rganishni hamda o'xshatishning bu turlaridan Qodir baxshi Rahimovning foydalanish darajasini tadqiq etishni maqsad qilib oldik.

1.3.1. Doston matnida qo'llanilgan an'anaviy o'xshatishlar

¹ Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. – Toshkent, 2005.

² Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. -57-58-betlar.

Fozil shoir dostonlarining lingvopoetik xususiyatlari ustida tadqiqot olib borgan G.Jumanazarova ta'kidicha, xalq poetik ijodi namunalari matnida o'xshatishning an'anaviy va noan'anaviy turlari keng qo'llaniladi. Ma'lumki, an'anaviy o'xshatishlar xalq jonli so'zlashuv nutqida keng qo'llanilib, ular o'zbek tili leksik qatlamidan o'ziga xos o'rin egallagan. Tilshunos M.Yo'ldoshev ta'kidicha esa, an'anaviy o'xshatishlar ko'p ishlatilaverib, o'z ohorini yo'qotgan, o'xshatish etalonlari tegishli tushunchalarning doimiy ifodachilariga aylanib qolganligi tufayli avvaldan bilingan, kutilgan tasviriy vosita sifatida o'z obrazlilik, emotsional-ekspressivligini kamaytirgan bo'ladi.

An'anaviy o'xshatishlar jonli so'zlashuv nutqida, shuningdek, tilimizning leksik qatlamlarida ko'plab uchraydi. Lekin, shunisi muhimki, an'anaviy o'xshatish etaloni (timsoli) o'xshatish asosi (belgi) ni ifodalashda poetik ramz darajasiga ko'tarilgan bo'ladi. Jumladan, Qashqadaryoning bulbuli nomini olgan Qodir baxshi Rahimov dostoni tilida qo'llanilgan o'xshatishlarga e'tibor bilan qaralsa, ularning kattagina qismini an'anaviy o'xshatishlar tashkil etishi ma'lum bo'ladi.

Dostonning epik qahramonlari nutqida yor, ya'ni go'zal ma'shuqaning yuzi (variantlari: jamol, husn) osmon jismlaridan oy (variantlari to'lin oy, o'n besh kunlik oy, o'n to'rt kunlik oy), o'simliklar (gul, lola) ga o'xshatilishi biz nazarda tutayotgan o'xshatishning eng faoli sanaladi. Bunday holat baxshi shoirning biz tadqiq etayotgan "Kelinoy yoki Norguloy", dostonidagina emas, balki "Jorxun maston", "Sanamoy" dostonlari tilida ham uchraydi.

Ilmiy manbalarda *ayiqday qo'pol, qo'yday yuvosh, tulkiday ayyor, paxtaday oq, toshday qattiq, eshakday befarosat* singari bir qator o'xshatishlar xalqimizning badiiy tasavvuri, tashqi olamni baholash mezonlari va boshqa holatlarga ko'ra qadimdan shakllanib, ishlatib kelingani uchun an'anaviy o'xshatishlarga kirishi ta'kidlanadi. Bu haqda tilshunos M.Yo'ldoshev quyidagilarni yozadi: "...Ular o'zbek xalqining badiiy tasavvurlari, madaniy-tarixiy tajribalari, umuman, tashqi olamni baholash mezonlari mahsuli o'laroq

ancha ilgari shakllanib, uzoq davrlar mobaynida ishlatilib kelinadi. Bu o'xshatishlar og'izdan og'izga, asrdan asrga o'tib kelayotgani uchun ham ularning o'xshatish etalonlari o'z orginalliklarini allaqachon yo'qotib, qoliplashgan nutq parchalari bo'lib qolgan, an'anaviy tus olgan. Shuni hisobga olib, ular an'anaviy o'xshatishlar deb qaraladi.

An'anaviy o'xshatishlar ko'p ishlatilaverib, o'z ohorini yo'qotgan, o'xsha-tish etalonlari tegishli tushunchalarining doimiy ifodachilariga aylanib qolganligi tufayli avvaldan bilingan, kutilgan tasviriyl vosita sifatida o'z obrazlilik, emotsional-eksprissivligini kamaytirgan bo'lishi tabiiy"¹.

Xalq epik asarlarida esa yuz gul, lola va oyga, qosh kamonga, lab shakar va bolga, tish sadaf va durga o'xshatilishiga ko'p guvoh bo'lamiz. Bunday o'xshatishlarni ham soha mutaxassislari an'anaviy o'xshatishlar qatoriga kiritadilar. Bundan tashqari, xalq epik asarlari tilida osmondagi oy, egilgan yoy, bo'z qarchig'ay, qaddi shamshod, bo'taday, oyday, sherday, yo'lbarsday, alifday, xazon urgan gulday, toyday, qo'yday kabi o'xshatishlar ko'p qo'llanishini Fozil shoir dostonlarida qo'llanilgan o'xshatishlar xususida so'z yuritgan G.Juma-nazarova ham alohida ta'kidlab o'tadi. Bu o'xshatishlarni ham an'anaviy o'xshatishlar safiga kiritadi.

Biz tadqiq qilayotgan Qodir baxshi Rahimovning "Kelinoy yoxud Norguloy" dostoni tilida ham bunday o'xshatishlar ko'p qo'llanganiga guvoh bo'ldik. Bunga doston matnidan o'nlab misollarni keltirish mumkin: *Mol quvgansan cho'li tovga, Endi boshdan ketsin cho'li tovga, **O'n besh yashar qizday** bo'lib, Ertaroq yetkaz o'tovga.(10-b.)// Ikki bedov yo'l bosadi, **Itolg'u qushday** chirqillab, Qo'lidagi irg'ay tayoq, Ot chopganda so'lqillab.(13-b.) // Jona yerdan bosib o'tsa, Qolar o'raday qozilib. Otning nishobga tashlashi, Ko'zlagan **o'q ilonday**.(13-b.)*

Xalq og'zaki poetik ijodi namunalarida mashuqaning yuzi oyga, qosh egilgan yoyga, ya'ni kamonga yoki uch kunlik oyga, qaddi-qomat shamshodga,

¹ Yo'ldoshev M. Ko'rsatilgan manba.

sarvga, bo‘z qarchig‘ayga, til ximichga; tish dur va gavharga yoki sadafga; yorning o‘zi gulga, tovsuga, bulbulga, jannatdagi hurga; ko‘z yoshlari esa tabiat hodisalari sanalgan do‘l va jalaga; epik qahramonlarning mardligi va shijoati yo‘lbarsga, sherga o‘xshatiladi. Bu singari o‘xshatishlar ham an’anaviy o‘xshatishlar sanalib, Qodir baxshi dostoni tilida bu o‘xshatishlarning aksariyat qismi qo‘llanilgan.

Masalan, dostonning epik qahramonlari sanalagan cho‘ponlarning barii Norguloyga oshiq bo‘lib, qo‘llariga soz olib Norguloyning ta’rifini keltirgan o‘rinlarda bunday o‘xshatishlar qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz. Xoloyor cho‘pon qo‘liga do‘mbira olib Norguloyning ta’rifini keltirar ekan uning belini tol ximchaga o‘xshatadi. Chiroyli qizlar beli mumtoz adabiyotda hatto qilga qiyos qilinishini yaxshi bilamiz. Qodir baxshi esa tol ximchaga o‘xshatgan: *O‘ng yuzingdagi xolingdan, Kadi ko‘targan qo‘lingdan. Mendayin cho‘ponlar aylansin, **Tol ximchaday** belingdan (39-b).*

Norguloyning ta’rifi G‘ulom cho‘pon tomonidan berilar ekan, uning tashqi ko‘rinishinigina emas, balki xatti-harakati va xarakteriga xos asisiy belgilarni ham o‘xshatishlar orqali tasvirlaganini ko‘ramiz. Qizning sho‘x-shaddodligi asov toyga, yuvoshligi esa qo‘yga, o‘zi esa osmondagi oyga o‘xshatiladi: *Osovligi **toyday** bo‘b, Yuvoshligi **qo‘yday** bo‘b. Qizlari yulduz bo‘lsa, O‘zi to‘lgan **oyday** bo‘b. Ketayotir Oypari, Hamma qizladan ilgari (42-b).*

Dostonning asosiy persanajlaridan biri Rahmat (ya’ni So‘ltoq) nomidan Norguloyning ta’rifi keltirilgan matnda esa eng yaxshi an’anaviy o‘xshatishlarga duch kelamiz: *Norguloy setora taqdi, Qilig‘i **yog‘day** yoqdi. Dunyolarda armon yo‘q, Bizlarga qarab qosh qoqdi (26-b.). // Pachkamarning kamari, To‘riga urar shamoli. **Oy tuvganday** yarqillar, Norguloyning jamoli (26-b.). // Qatov boshida uyadi, Qushlar tuxumin jiyadi. Norguloydan kechdim desam, Yuragim **o‘tday** kuyadi (28-b.).*

Xalq dostonlarida ma'shuqaning badani qorga, marmarga va boshqa predmetlarga, qosh egilgan yoyga, kiprik saf tortgan qo'shinga, ko'z bahardagi yashin (chaqmoq)qa o'xshatiladi. Qodir baxshi ushbu dostonda epik qahramonlar tilidan Noguloyning badani, qoshi, kiprigi, ko'zi, xolini aynan shu kabi an'anaviy o'xshatishlar vositasida go'zal va betakror tarzda tasvirlashga harakat qiladi: *Badanlaring **qorday** bo'lib, Oq o'toving **oyday** bo'lib (42-b.). // Terma terilgan kiprigi, Saf turtib turgan **qo'shinday**. Ikki ko'zining yonishi, Bulutdan chiqqan **yashinday** (46-b.). // Qoshginang **yoyday** egilgan, Yoylar orqada qolguday (46-b.). // O'ng yuzida xollari, **misol arining bollari** (48-b.).*

So'ltoq o'z sevgilisi Norguloyni o'g'irlab ketayotgan epizodlar tasvirlangan she'riy matnda yorning xursandchiligi katta ishtiyoq bilan tasvirlangan. So'ltoqning otni choptirishi yashinga, bedov otning chopishi lochinga, tulkini quvgan toziga, otning pastlikka tushishi ko'lda suzayotgan g'ozga o'xshatiladi. Bu o'xshatishlar ham an'anaviy o'xshatishlar bo'lib, Qodir baxshi ular orqali o'z yoriga yetishishni maqsad qilib, o'tovdan o'g'irlab ketishi, tezlikda biror xavfsiz joy topish uchun shoshilishi halatlarini o'ta ishonarli tarzda tasvirlay olgan: *...Otni qistadi bek So'ltoq, **Yashinday** og'ib jo'nadi. **Lochinday** bedov cho'zildi, Bosgan joylari qazildi (70-b.). // Sag'ana otning ketishi, Tulkini qo'vgan **toziday**. Nishabga quyilib tashlashi, Hovdak ko'llarning **g'oziday** (71-b.).*

Qodir baxshi Rahimovning "Kelinoy yoki Norguloy" dostonida qo'llanilgan an'anaviy o'xshatishlarga ekspressivlik, o'ziga xos individuallik, yangilik bo'yog'ini bera olganligini ta'kidlab o'tish joiz. Bu kabi o'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida, dialektal qonuniyatlarga asoslangan holda, asrlar davomida xalq dostonlari tilini bezashda, epik tasvirning aniqligini va obrazlilikini ta'minlashda samarali xizmat qila olgan. Bunday deyishimizga sabab: tilimizdagi an'anaviy o'xshatishlar dastlab jonli tilda, og'zaki so'zlashuv nutqida paydo bo'lgan, so'ngra til taraqqiyoti natijasida ijodiy improvizatsiya jarayoni orqali badiiy uslub va boshqa

uslublarga ko'chgan. Shuning uchun ham ularning eng sara namunalari xalq og'zaki ijodida sevib kuylangan va katta badihago'ylik bilan ijro etilgan xalq dostonlari matnlarida uchrashi tabiiy hol sifatida qaralishi kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, barcha xalq epik dostonlarida bo'lgani singari baxshining "Kelinoy yoki Norguloy" dostonida ham badiiy tasvir vositalaridan biri sanalgan o'xshatishning an'anaviy ko'rinishi hamda shakllaridan keng foydalanilgan. Bu baxshi shoir quvvai hofizasining kengligidan, xalq jonli tili boyliklaridan ustalik bilan foydalana bilganidan dalolat beradi.

1.3.2. Dostonda qo'llanilgan xususiy-muallif o'xshatishlari

Noan'anaviy yoki xususiy-muallif o'xshatishlar baxshining epik qahramonlar xatti-harakatiga munosabati, nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayuli, badihago'ylik mahorati asosida xalq tilidan yuksak darajada foydalanish orqali yuzaga chiqadi. Bunday o'xshatishlar so'z san'atkorining epik repertuarida, nihoyat darajada kamyob, takrorlanmaydigan, o'ta original, ba'zida yagona va faqat baxshi dostonlari tilidagina uchraydi.

O'xshatishlar bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar ham xususiy-muallif o'xshatishlari atamasini ma'lum bir ijodkor qo'llagan, asarida keltirgan o'xshatishga nisbatan qo'llanishini ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, tilshunos G.Jumanazarova ta'kidlaganidek, "...an'anaviy xalq dostonlari kollektiv ijod mahsuli ekanligini, ularning ijodkori va ijrochisi faqat Bulung'ur emas, balki Qo'rg'on, Narpay, Sherobod kabi mashhur dostonchilik maktablariga mansub xalq baxshilari bo'lganligini, biz nazarda tutayotgan o'xshatishlar ular tomonidan ham yaratilganligini, bunday o'xshatishlar yanada sayqallashib, xalqona tarzda bizgacha yetib kelganligini nazarda tutadigan bo'lsak, odatiy va odatdan tashqari, kutilgan va kutilmagan farqlanuvchi mantiqiy xulosaga asosan, xususiy-muallif (favqulodda) atamasi shartli ravishda tanlanganini ochiq ta'kidlashimiz zarur"¹.

¹ Jumanazarova G. Ko'rsatilgan manba.

Lingvistik adabiyotlarda yana shu narsa ham ta'kidlanadiki, dostonlar kollektiv tomonidan yaratilgan, ya'ni uning ijrochilari bitta dostonchilik maktabi vakili bo'lmay, boshqa dostonchilik maktablarida ham shu dostonlar kuylangan va dostonlar tilidagi boshqa ijodkor dostonlarida ham qo'llanilgan bo'lsa, ularga nisbatan odatiy, odatdan tashqari, kutilgan va kutilmagan singari farqlovchi mantiqiy xulosalarga asosan, xususiy-muallif o'xshatishlari degan atama shartli ravishda qo'llaniladi.

Qodir baxshining ushbu dostonida noa'anaviy o'xshatishlardan ham ustalik bilan foydalanilgan. Ma'lumki, o'xshatishning bu turi o'zining ta'sirchanligi, yorqinligi bilan alohida ajralib turadi. Shu tufayli favqulodda o'xshatishlar kitobxonga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularning xotirasida muhrlanib qolishga yordam beradi. Noan'anaviy o'xshatishlar originalligi, obrazlilik va eksprissivligi bilan ham alohida ajralib turadi.

Dostonning bosh personaji So'ltoq Norguloyga erishish yo'lida qilgan xatti-harakati ish bermagach, Dono cho'ponning ko'magi bilan qizni olib qochadi. Yoriga erishishning yagona yo'li shu ekanini anglab yetadi. Ish amalga oshgach, xursandchiligi haddan oshadi. Ayni shu holat noan'anaviy o'xshatish orqali quyidagicha ifada etilgan: *Ko'ngli **guld**ay jaynadi, Yo'llarga bedov o'ynadi (70-b.).*

Ko'rinadi o'xshatish qipchoq lahjasi vakillari - xalq jonli tilida mavjud bo'lgan jaynamoq (yashnamoq) fe'li bilan shakllantirilgan va favqulodda o'xshatish yaratilgan.

Favqulodda o'xshatishlarga dostonidan o'nlab misollar topish mumkin. Masalan: ...**Kun botganday** oy Norgul, Botiblar ketib boradi (71-b.) // *Qamchi urib To'riga, Bedov **o'xshab bo'riga**. Harsillab ketayotir, Oq to'baning o'riga (69-b.). // Yoshlikda o'lgandir otam ham enam, **O'tday bo'lib** kuyib borar bu tanam (65-b.). // Aylanishda cho'lda **lochin uchganday**, Achchiq kelar ko'kda **bulut ko'chganday**. Bir-biriga qo'l uzatib ushlashdi, Baland tovga **yashin tushganday** (64-b.). // Quvsa **qushdan o'tguday**, Jiyron otni men ko'rdim... (60-*

b.). // (Dono cho'pon) O'g'lingiz **sher bo'lsin**, qizingiz **oy bo'lsin**, Qadam bosgan joyida sakkiz qorin moy bo'lsin (58-b.) // Norguloy o'zi **huriday**, Oltin tanganing **nuriday**, Beliga tutgan kamari, Chimildiqarning **to'riday**. // Iynilarida oq sadaf, Olatog'larning **qoriday**, Yaqin bo'lsayam ko'rinmas, Ko'yi Qofdagi **pariday** (52-b.) // ...Nuxtali **otdek bog'landim**, Qayerdan turib otding o'q (52-b.). // ...Tinmay sayragan **bulbul bo'b**, Sayrablar tursam qoshingga (52-b.)

Yuqorida keltirilgan matnlarda qo'llanilgan o'xshatishlarda o'xshatish subyekti bilan o'xshatish etaloni o'rtasidagi mutanosiblik odatdan tashqari. Shuning uchun ham ularni Qodir baxshi epik tafakkuri natijasida qo'llangan noan'anaviy o'xshatishlar deyish mumkin.

So'ltoq tomonidan o'g'irlanib, otga o'ngarib ketilayotgan Norguloyning dardi dunyosi qorong'i. Bu holat kunning botishiga o'xshatilgan. Qamchi zarbiga qolgan bedov otning holati bo'riga, yoshligidan ota-onasiz qilib, yetimlik azobini tortgan So'ltoqning holati o'tda kuygan kishiga, Norguloy bilan So'ltoqning kurash tushish holatlari cho'lda uchgan lochinga, ko'kda bulut ko'chganga, toqqa tushgan yashiga o'xshatilishi darhaqiqat noan'anaviy, ya'ni favqulodda o'xshatishlardir. Doston bosh persanaji Norguloyni hurga, oltin tanganining nuri (yog'dusi)ga, chimildiqning to'riga o'xshatilishi ham noan'anaviy o'xshatishdir.

Baxshi bu favqulodda o'xshatishlarni doston matniga shunchaki bezovchi va go'zallashtiruvchi vosita sifatida keltirmagan. Bu o'xshatishlar badiiy-estetik ehtiyoj zarurati tufayli qo'llanilgani aniq. Tilshunos M.Yo'ldoshevning yozishicha, "Tasavvur qilish qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat va holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko'z o'ngida gavdalantirish, tasvirni quruq emas, balki quyuq bo'yoqlar bilan amalga oshirishda ana shunday o'xshatishlar favqulodda muhim vositadir"¹.

¹ Yo'ldoshev M. Ko'rsatilgan manba.

Biz tanlagan “Kelinoy yoki Norguloy” dostoni matniga shu nuqtai nazar bilan murojaat etadigan bo‘lsak, unda favqulodda o‘xshatishlar ko‘pligiga ishonch hosil qilish mumkin. O‘xshatishning bu turi o‘zining ta’sirchanligi va yorqinligi bilan alohida ajralib turadi, noyoblighi uchun o‘quvchi va kitobxonning ongu shuuriga muhrlanib qoladi. Favqulodda o‘xshatishlarga originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo‘ladi. Lekin bunday o‘xshatishlar o‘zining jozibadorligi, yorqinligi, ta’sirchanligi va kutilmagan dalolati bilan o‘quvchi yoki tinglovchini hayratga soladi.

1.4. O‘xshatishlarning yuzaga chiqishida fe’llarning o‘rni

Xalq dostonlari tilida qo‘llanilgan o‘xshatishlar qatnashgan matnlarni kuzatgan tilshunoslarimizning yozishlaricha, *bo‘lib/bo‘b, ko‘rib, qarab* singari bir qator fe’llar o‘xshatish ko‘rsatkichlaridan keyin kelib, ish-harakatning jarayonini, holatini bildirishga xizmat qiladi. Qodir baxshi Rahimovning mazkur dostonida bu fe’llardan tashqari *chirqillab, jaynatmoq (shevada), chaqnaydi, chiqqan, yozgan* va boshqa fe’l shakllari o‘xshatish ko‘rsatkichini olgan so‘zdan keyin yoki oldin qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. Misollar: *Yurakkinamning yonishi, Tandirning **chiqqan o‘tiday**, Norgulning bosgan izlari, Mirzaning **yoqan xatiday** (38-b.). // Noningdan yuzum ko‘rinar, Qo‘lga **ushlagan oynaday.** (38-b.). // Ikki bedov yo‘l bosadi, **Itolg‘u qushday chirqillab** (13-b.) // Ikki qoshing hidlasam, Chechak **ochilgan bahorday** (46-b.) // Zulfaklaringda qo‘ng‘iroq, Yomg‘irdan **oqqan nahorday** (46-b.). // Ustiga Norgul boradi, Oylar **tuvganday yarqillab** (72-b.) kabi.*

Bo‘lmoq fe’li va uning qisqargan shakli bo‘b fe’lida epik qahramonning biror xatti-harakati yoki qiyofasini ko‘z-ko‘zlash ottenkasi mavjud. Qodir baxshi Rahimovning tadqiq etilayotgan dostoni matnida ko‘proq ushbu fe’lning to‘liq shakli bilan birgalikda qisqargan bo‘b shakli ko‘proq qo‘llangani kuzatildi. Masalan: *Badanlaring **qorday bo‘lib**, Oq o‘toving **oyday bo‘lib** (42-*

b.). // Osovligi **toyday bo‘b**, Yuvoshligi **qo‘yday bo‘b**. Qizlari yulduz bo‘lsa, O‘zi **to‘lgan oyday bo‘b**. Ketayotir Oypari, Hamma qizladan ilgari (42-b). // Mol quvgansan cho‘li tovga, Endi boshdan ketsin cho‘li tovga, O‘n **beshtashar qizday bo‘lib**, Ertaroq yetkaz o‘tovga.(10-b.)

Yuqoridagi matnlardan ko‘rinib turibdiki, o‘xshatish ko‘rsatkichini qabul qilgan so‘zdan so‘ng **bo‘lib/bo‘b** fe‘li qatnashgan va ish-harakatning jarayonini, holatini bildirish uchun xizmat qilgan. Ba‘zi matnlarda bo‘lib fe‘li o‘xshatish ko‘rsatkichi qabul qilgan so‘zdan oldin kelgan: *Silkib otdan ag‘dardi, So‘ltoq bo‘lib bo‘riday* (18-b.)

Ayrim she‘riy matnlarda bo‘lib fe‘lining bo‘lishsiz shakli ham qo‘llangan: *Qiz deganning yuzi gulday bo‘lmasa, Quchoqlasa beli qilday bo‘lmasa, Mehnat qilib qaliniga mol berma, Qiz sultoni Norguloyday bo‘lmasa* (22-b.)

Tilda fe‘l so‘z turkumining tasviriy imkoniyatlari tilshunos olim M.Sodiqovanning ishida maxsus tadqiq etilgan. Olima fe‘lning tasviriy imkoniyatlarini “fe‘l so‘z turkumi zabardast, uning iroda kuchi beqiyos”, deya ta’riflaydi. Bu so‘z turkumining tasviriy imkoniyatlari boshqa olimlarning ishlarida ham o‘rganilgan. Masalan, A.I.Yefimov shunday yozadi: “fe‘llarning tasviriy xususiyatlari qadim-qadimdan yozuvchilarning o‘zini ham, badiiy asar tilini o‘rganuvchi tadqiqotchilarni ham diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan”¹.

Ko‘rinadiki, fe‘l so‘z turkumi badiiy matnda, shu jumladan, xalq og‘zaki poetik ijodi namunalarida tasviriylikni ifodalashda keng qo‘llaniluvchi so‘z turkumi sanaladi. Buni Qodir baxshi Raximov dostonlari misolada, jumladan, biz o‘rganayotgan “Kelinoy yoki Norguloy” dostoni misolida ham ko‘rish mumkin: *Yulduz taqqanday yarqillab, Quloqda tilla ziragi* (72-b.). // *Ot chopadi misli bo‘ri, Otga qiyin tovning o‘ri* (72-b). // *Qamchi zarbidan tulporlar, Kiyikday bo‘lib dirkillab* (79-b). // *Bari shishirgan biyanday, Kul ustidagi chiyonday. Qo‘lga tayoqni ushlagan, Dumi qayrilgan chayonday...*(79-b.) // *Otlar irg‘iydi qulonday, Ustiga ajal minganday...* (80-b.).

¹Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. -113-bet.

Dostondan olingan bu matnlarda qoʻllanilgan oʻxshatishlar oʻxshatish subyekti bilan oʻxshatish etaloni oʻrtasidagi mutanosiblik odatdan tashqari. Bunday oʻxshatishlar xalqimizning ijtimoiy-tarixiy hayot tarzi, bolajonligi, maishiy darajasi, badiiy estetik didi va ishonch-umidi bilan uzviy bogʻlanganki, ularda epik qahramonlarning u yoki bu darajadagi faoliyatidan, xatti-harakatidan favqulodda foydalanganligi bir qarashda sezilmaydi ham.

Gap feʼl soʻz turkumining matn tarkibidagi tasviriyl imkoniyatlari haqida borar ekan, *oʻxshamoq* feʼlidan iborat leksik-semantik birliklarning oʻrni alohida ekanligini taʼkidlamok lozim. Bu borada M.Yoʻldoshevning mulohazalariga eʼtibor qilamiz: “Odatda bir predmet-holat boshqasiga muayyan bir belgiga koʻra emas, balki butunicha, toʻlasicha, aynan oʻxshatilmoqchi boʻlsa, oʻxshatish asosi bevosita ifodalanmaydi. Bunday hollarda oʻxshatishning shakliyl koʻrsatkichlari sifatida ham koʻpincha *oʻxshamoq* feʼlidan foydalaniladi”¹. Qodir baxshi tomonidan yaratilgan mana bu oʻxshatishlar xalqonaligi, betakrorligi bilan alohida ajralib turadi: *Jamoling oʻxshaydi osmonda oyga, / Qoshing kelishibdi egilgan yoyga. // Qamchi urib Toʻriga, Bedov oʻxshab boʻriga. Harsillab ketayotir, Oq toʻbaning oʻriga (69-b.) // Husningni choʻponlar oyga oʻxshatdi, Botirlar or uchun otni taylabdi, Changovuz chalishing meni qaqshatdi, Sanamjon, aylandim chalgan qoʻlingdan (30-b.) // Tushdi Pachkamar soyiga, Oʻxshab falakning oyiga (43-b.)*.

Koʻrinib turibdiki, oʻxshatish asosi bitta yoki ikki-uchta emas, balki yaxlit, umumiydir. Shuning uchun ham oʻxshatish asosi alohida bir soʻz bilan ifodalanmagan, ayni paytda oʻxshatishning shakliyl koʻrsatkichi qoʻshimchalar emas, balki *oʻxshamoq* feʼlidan iborat leksik-semantik birlikdir. Bu birlikning eng asosiy vazifasi oʻxshatishning yaxlitligi, umumiyiligini taʼkidlab oʻtishdan iboratdir.

Tadqiqot davomida yana bir fikrni alohida taʼkidlash oʻrinli deb bilamiz. Oʻxshamoq feʼlining leksik-semantik birliklari mazkur dostonda qoʻllanishi

¹ Yoʻldoshev M. Koʻrsatilgan manba.

ancha faol. Bu fe'l turli shakllarda qo'llanilgan. Jumladan, *o'xshatib, o'xshab, o'xshaydi, o'xshar, o'xshatgan, o'xshaysan, o'xshatdi* singari shakllar shular jumlasidandir.

Qodir baxshi dostonida qo'llanilgan o'xshatishlarning aksariyatida o'xshatish asosi harakat-holatdan iborat, ya'ni fe'l turkumidagi so'zlar (ko'pincha, ularga bog'langan boshqa so'zlar bilan birgalikda) bilan ifodalanadi. Bunday bo'lishi tabiiy hol sanaladi. Chunki u yoki bu belgiga qaraganda, harakat-holatni ifodalash, ko'rsatish, butun o'ziga xosligi bilan tasvirlash murakkab. Albatta, bunda ham baxshi tomonidan tanlangan o'xshatish etalonining kutilmaganligi, yangiligi muhimdir. Qodir baxshining so'z san'atidan foydalanish mahorati shundan iboratki, ko'p hollarda harakatdagi yoki muayyan holatdagi o'xshatish etalonlarini tanlaydi. Bu harakat yoki holat ko'pincha sifatdash yoki sifatdash oboroti orqali ifodalangan va bu sifatdash yoki sifatdash oboroti bevosita o'xshatish etalonini ifodalaydigan bo'lakka aniqlovchi bo'lib keladi: *Bu so'zlarni eshitib, yigitlar nima deyarini bilmay, bilganlari ham gapini ayta olmay, bo'riday bo'lib jalanglab, to'shini yalang'ochlab, birdan urush qilmoqchi bo'lganday bo'lib turibdi. // Tovush tinganday bo'ldi, Dushman ko'nganday bo'ldi, O'ldimlashib jo'nadi, Beklar yengganday bo'ldi. // Jo'nadi bedov hirkillab, Afzali oyday yarqillab... Ketayotir dirkillab, Oqar suvday sharqillab, Qimtanadi jonivor, Olqorday bo'b dirkillab* kabi.

Bob bo'yicha xulosa

1. O'zbek tilshunosligida o'xshatishlarning bir necha tasniflari amalga oshirilgan. Jumladan, M.Mukarramov, N.Mahmudov, M.Yo'ldoshev, M.Yoqubbekova, D.Xudoyberganova, G.Jumanazarova singari tilshunos olimlarning tasniflari e'tiborga loyiq. Ular o'xshatishlarni poetik tabiatiga ko'ra,

qo‘llanishiga ko‘ra, tuzilishiga ko‘ra, sezgi va tasavvurlar orqali yuzaga kelishiga ko‘ra tasnif etadilar.

2. Barcha xalq epik dostonlarida bo‘lgani singari Qodir baxshining “Kelinoy yoki Norguloy” dostonida ham badiiy tasvir vositalaridan biri sanalgan o‘xshatishning an’anaviy ko‘rinishi hamda shakllaridan keng foydalanilgan. Bu baxshi shoir quvvai hofizasining kengligidan, xalq jonli tili boyliklaridan ustalik bilan foydalana bilganidan dalolat beradi.

3. Lingvistik adabiyotlarda shu narsa ta’kidlanadiki, dostonlar kollektiv tomonidan yaratilgan, ya’ni uning ijrochilari bitta dostonchilik maktabi vakili bo‘lmay, boshqa dostonchilik maktablarida ham shu dostonlar kuylangan va dostonlar tilidagi boshqa ijodkor dostonlarida ham qo‘llanilgan bo‘lsa, ularga nisbatan asosan, xususiy-muallif o‘xshatishlari degan atama shartli ravishda qo‘llanib kelinmoqda.

4. Qodir baxshining ushbu dostonida no’anaviy o‘xshatishlardan ham ustalik bilan foydalanilgan. Bu o‘xshatishlarga originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo‘ladi, lekin ular o‘zining jozibadorligi, yorqinligi, ta’sirchanligi va kutilmagan dalolati bilan o‘quvchi yoki tinglovchini hayratga soladi.

5. Xalq dostonlari tilida qo‘llanilgan o‘xshatishlar qatnashgan matnlarni kuzatgan tilshunoslarimizning yozishlaricha, *bo‘lib/bo‘b*, *ko‘rib*, *qarab* singari bir qator fe‘llar o‘xshatish ko‘rsatkichlaridan keyin kelib, ish-harakatning jarayonini, holatini bildirishga xizmat qiladi. Qodir baxshining mazkur dostonida bu fe‘llardan tashqari *chirqillab*, *jaynatmoq (shevada)*, *chaqnaydi*, *chiqqan*, *yozgan* kabi fe‘l shakllari o‘xshatish ko‘rsatkichini olgan so‘zdan keyin yoki oldin qo‘llanilganini ko‘rish mumkin.

II BOB. QODIR BAXSHINING O‘XSHATISH UZVLARINI TANLASHDAGI MAHORATI

2.1. Baxshining o‘xshatish uzvlarini tanlashdagi mahorati

“Kelinoy yoki Norguloy” dostoni matnida shunday go‘zal o‘xshatishlar namunalari uchraydiki, ularda bir o‘xshatish subekti uchun birdan ortiq o‘xshatish etaloni va o‘xshatish asosi tanlangani kuzatiladi. Boshqacha qilib aytganda, muayyan bir narsa-hodisa yoki harakat-holatga o‘xshatiladi. O‘ta ziyraklik va badiiy did bilan tanlangan bunday etalonlar tasvir obektini bir necha jihatdan xarakterlash imkonini beradi. Bunda, albatta, tasvir to‘la, quyuq va ta’sirchan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlarda o‘xshatish etalonlarining ko‘p bo‘lishini, ularning bir-birlariga ustlanishlarini hisobga olib, ularni “qavatlangan o‘xshatishlar” deyish mumkin. Ba’zan baxshi dostonida xuddi yuqoridagiday “qavatlangan o‘xshatishlar”da hatto o‘xshatish asosining ham o‘xshatish etaloni uchun ikkitadan bo‘lishi kuzatiladi. Bunday hollarda emotsional-ekspressivlik yana ham yuqori bo‘lishi tabiiy.

Qodir baxshi Rahimovning ushbu dostonidagi o‘xshatishlarning o‘xshatish etalonlari (timsollari) sifatida turli harakat-holatdagi xilma-xil predmetlar tanlanganini ko‘ramiz. Quyida ana shu haqda qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

1. O‘xshatish etaloni epik qahramonning muayyan harakat yoki holati: *Ikki zulfak nurday bo‘lib, O‘zing uchar hurday bo‘lib. // Ketayotir dirkillab, Oqar suvday sharqillab.*

2. O‘xshatish etaloni muayyan harakat yoki holatdagi hayvon, qush va hasharotlar: *Asovliging toyday bo‘lib, Yuvoshliging qo‘yday bo‘lib. // Ot chopadi misli bo‘ri, Otga qiyin tovning o‘ri. // Qamchi zarbidan tulporlar, Kiyikday bo‘lib dirkillab. // Bari shishirgan biyanday, Kul ustidagi chiyonday.*

Qo'lgaga tayoqni ushlagan, Dumi qayrilgan chayonday... // Otlar irg'iydi qulonday, Ustiga ajal minganday...

3. O'xshatish etaloni muayyan harakat yoki holatdagi daraxt, yaproq, olma, gul kabi o'simliklar dunyosiga oid narsalar: *Qiz deganning yuzi gulday bo'lmasa, Quchoqlasa beli qilday bo'lmasa, Mehnat qilib qaliniga mol berma, Qiz sultoni Norguloyday bo'lmasa. // O'ng yuzingdagi xolingdan, Kadi ko'targan qo'lingdan. Mendayin cho'ponlar aylansin, Tol ximchaday belingdan.*

4. O'xshatish etaloni muayyan harakat yoki holatdagi boshqa turli narsalar: ...Kun botganday oy Norgul, Botiblar ketib boradi (71-b.) // Yoshlikda o'lgandir otam ham enam, O'tday bo'lib kuyib borar bu tanam (65-b.). // Aylanishda cho'lda lochin uchganday, Achchiq kelar ko'kda bulut ko'chganday. Bir-biriga qo'l uzatib ushlashdi, Baland tovga yashin tushganday (64-b.). // Norguloy o'zi huriday, Oltin tanganing nuriday, Beliga tutgan kamari, Chimildiqarning to'riday. // Iynilarida oq sadaf, Olatog'larning qoriday, Yaqin bo'lsayam ko'rinmas, Ko'yi Qofdagi pariday (52-b.).

Dostonda qo'llanilgan o'xshatishning o'zi o'xshatish subyekt (asos) ifodalangan predmet, voqea, harakat yoki holatni obrazli tasvirlash, unga tinglovchining e'tiborini tortish ehtiyojidan kelib chiqadi.

O'xshatish subyekt (asos) doston matnida ot, morfologik tabiatiga ko'ra, asosan, predmetlikni ifodalashga xizmat qiladi. Bu unsur (uzv) ot, otlashgan so'zlar, kishilik olmoshlari yoki shaxs va predmetlarni tavsiflovchi so'z birikmalari, ko'pincha otli va fe'lli birikmalar bilan ifodalanadi. O'xshatish subyekt (asos) ning leksik-semantik mazmuni baxshi dostonida xilma-xil ko'rinishlarga ega. Ular:

1. Epik qahramon (obraz) shaxsini bildiradi: *ota-ona, farzand, yor, ma'shuqa, oshiq* kabilar.

2. Epik qahramon portretiga aloqador tana a'zolarini bildiradi: *yuz, og'iz, tish, lab, soch, qo'l, qosh, kiprik, ko'krak* kabilar.

3. Epik qahramonning xulq-atvori va xususiyatlarini bildiradi: *yurishi, chiqishi, husni jamoli, kiprik qoqishi, ko‘z suzishi* kabilar.

4. Epik tasvirga jalb etilgan turli xil predmetlarni bildiradi: *gul, suv, o‘tov, ot, tog‘* va boshqalar.

O‘xshatish subyektidan anglashilgan leksik ma’no real, hayotiy mazmunga ega bo‘lib, dostonda kuylanayotgan epik voqelikda mavjud bo‘lgan epik qahramon, narsa va hodisalarni ifodalashga xizmat qiladi. O‘xshatish subyektining o‘xshatish qurilmasida o‘xshatish etaloni bilan birga o‘xshatish ifodalovchi morfologik, leksik-morfologik vositalar yordamida amalga oshadi. Bu munosabat semantik yo‘l bilan (hech qanday leksik-morfologik vositalarsiz) ham ifodalanishi mumkin. O‘xshatish subyekti matn tarkibida ko‘pincha bosh kelishik shaklida bo‘lib, egalik qo‘shimchalarini olib turlanadi. Sintaktik jihatdan esa ega vazifasida keladi. O‘xshatish subyekti ba’zan matn tarkibidan tushib qolishi va o‘xshatish qurilmasi mazmunidan anglashilib turilishi ham mumkin.

O‘xshatish etaloni Qodir baxshining barcha dostonlarida, shu jumladan, “Kelinoy yoki Norguloy” dostonida qo‘llanilgan o‘xshatishlarda muhim unsur sanaladi. U, asosan, doston matnida badiiy bo‘yoqdorlik, obrazlilik, epik tasvirda aniqlik tug‘dirish uchun xizmat qiladi. Bu unsurda, asosan, otlar, otlashgan so‘zlar, so‘z birikmalari bilan ifodalanadi. O‘xshatish etalonidan anglashilgan ma’no asosiga nisbatan ko‘p qirrali bo‘lib, o‘zida ramziylik xususiyatini aks ettirgan bo‘ladi. O‘xshatish etalonining leksik ma’nosi real bo‘lmaydi, subyektiv baho mubolag‘ador ta’rif, badiiy bo‘yoq va obrazlilik uchun xizmat qiladi.

Biz o‘rganayotgan dostonda qo‘llanilgan o‘xshatishlardagi o‘xshatish etalonining leksik-semantik mazmuni rang-barang. Bu unsur uchun quyidagi obyektlar tanlanganini ko‘ramiz:

1. Epik qahramonlarning shaxsiga nisbatan: *Farhod, Layli, Shirin, Majnun*, va boshqalar.

2. Jonivorlar nomi: *arslon, sher, yo‘lbars, ot, kiyik, ilon, qoplon, qunduz, chayon, ilon* va boshqalar.

3. Narsa va qurollar nomi: *qamchi, kamar, ip, qil* va boshqalar.

4. Qimmatbaho buyumlar: *po‘lat, kumush, gavhar, marjon, zeb-ziynat, sadaf, dur* va boshqalar.

5. Qushlar: *qarchig‘ay, to‘rg‘ay, bulbul, qirg‘iy, lochin* va boshqalar.

6. Tabiat unsurlari: *suv, tog‘, qor, bog‘, gulzor, qir* va boshqalar.

Ot so‘z turkumi bilan ifodalangan o‘xshatish etaloni o‘xshatish konstruksiyasida o‘xshatish shakliy ko‘rsatkichlari (vositalari) bilan semantik-grammatik aloqaga kirishganda yasovchi qo‘shimchalar yordamida sifat va ravish so‘z turkumlariga o‘tadi. Sintaktik jihatdan o‘xshatish etaloni egadan boshqa barcha gap bo‘laklari vazifasida kela oladi. Ana shunday lisoniy xususiyatlar xalq poetik ijodining boshqa janrlari, jumladan, qo‘shiqlarda ham qo‘llanilgani tadqiqotlarda qayd etib o‘tilgan.

O‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichlari o‘xshatish qurilmasidagi o‘xshatish munosabatini shakllantiruvchi leksik, grammatik, stilistik, semantik elementlar yig‘indisidan tashkil topuvchi unsur sanaladi. Qodir baxshi dostonida qo‘llanilgan o‘xshatishlarda bu unsur ikki xil birliklar:

a) morfologik vositalar;

b) morfologik-leksik vositalar orqali ifodalanganini kuzatamiz.

Morfologik vositalarga *–day, –dayin, –dek, –dekkina, –din* affikslari hamda *kabi, singari, misli, xuddi, ham* yordamchilari kiradi. “Kelinoy yoki Norguloy” dostoni matnida bu morfologik vositalarning hammasi qo‘llanmagan albatta. Baxshi shoir ko‘proq *–day* affiksidan, *misli, xuddi* yordamchilaridan ko‘proq foydalangani aniq bo‘ldi. Avvalgi bobda misollar berilgani bois bu yerda misol keltirmadik.

Morfologik-leksik vositalarga *–ga mengzar, –day bo‘b, –ga o‘xshaydi, –ga o‘xshar, –ga mengzaydi, –day bo‘lib, –dek bo‘lib, –cha bor, –larcha bor, bir... dir, –ga ...mos* kabilar kiradi. Bu morfologik-leksik vositalardan baxshi

dostonida ko‘proq *-day bo‘b*, *-day bo‘lib*, *-cha bor* shakllari qo‘llangani aniqlandi. Quyida *-cha bor* shakliga misol keltiramiz xolos: *Tandirda noning oycha bor*, *Qo‘zi quyrug‘i moycha bor*. *Hech keltirmaysan qoshingga, Asovliqlaring toycha bor*. (38-b.) // *Uyning oldida soycha bor*, *Aka deganing naycha bor*. *Qirq o‘toving yulduz bo‘lsa, Oygul o‘tovi oycha bor* (37-b.).

Bu vositalar predmetni, uning belgisini, xususiyatlari, harakat va holatini o‘xshatishda xizmat qiladi. O‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichlari o‘xshatish konstruksiyasidagi yangi so‘z hosil qilish, modallik, qo‘shimcha ma’no otkenkasi berish, gap bo‘lagi vazifasini bajarib keladi.

2.2. Doston matnida qo‘llanilgan o‘xshatish uzvlari tasnifi

O‘xshatishlarni mukammal tadqiq etgan olim M.Mukarramovning ishlarida o‘xshatishni ifodalovchi vositalarga affikslar, yordamchi so‘zlar, leksik vositalar, morfologik-leksik vositalar kirishi qayd etiladi. Olimning bu fikrlariga qo‘shilgan holda, Qodir baxshi dostonidagi o‘xshatishlarni tadqiq etishda matnga lingvopoetik nuqtai nazaridan nima berganini aniqlash yo‘lidan borishga, baxshining an’anaviylik va individuallik sohasidagi mahoratiga baho berishga harakat qilamiz.

O‘zbek tilida o‘xshatish hodisasini ifodalashda *-day*, *-dek*, *-simon*, *-ona*, *-cha*, *-larcha*, *-din* kabi affiksali vositalar mavjudligi e’tirof etiladi. Bu vositalar o‘xshatish etaloniga qo‘shilib, dostonlarda o‘xshatish qurulmasini hosil qiladi.

Qodir baxshining “Kelinoy yoki Norguloy” dostoni lingvopoetikasi bo‘yicha kuzatishlarimiz asosida shuni aytish mumkinki, yuqorida ko‘rsatilgan vositalardan *-day* affiksi matn tarkibida o‘xshatish munosabatini yuzaga chiqarishda eng sermahsul sanaladi. Bu vosita epik qahramonni biror narsaga, boshqa bir narsani yana boshqa bir narsaga, holatni harakatga, belgini biror narsa, holat, harakat yoki belgiga qiyoslash asosida o‘xshatadi.

Lingvistik adabiyotlarda *-day/-dek* affikslari nihoyatda sermahsul sifat va ravish yasovchi affiks sifatida qayd etiladi. Affiksning ana shu xususiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, xalq og‘zaki poetik ijodida o‘xshatish etalonini anglatgan so‘z yoki birikma oxirida *-day/-dek* affiksi o‘zakka qo‘shilib, o‘xshatish subyekti va o‘xshatish etaloni o‘rtasidagi umumiylikni qiyoslab o‘xshatish asosida tasvirlaydi. Bu affiks doston matnida quyidagi holatlarda qo‘llanilganini ko‘ramiz:

- ikki predmet o‘zaro shakliga ko‘ra qiyoslanadi;
- predmetlarning xususiyatlari qiyoslab o‘xshatiladi;
- predmatlarning belgisi qiyoslanadi.

Quyida o‘xshatish uzvlaridan biri sanalgan o‘xshatish vositasi *-day* affiksining qo‘llanishi orqali yuzaga kelgan o‘xshatishlarning manbalari haqida fikr yuritishga harakat qilamiz. *-day* yordamida yasalgan o‘xshatishlarning manbalari quyidagicha:

1. Insonlar va epik qahramonlarning biror sifatiga o‘xshatiladi: *odamzodday, hojiday, Norgulday, Farhodday, Majnunday* kabi. Misollar: *Suv beraman gulday bo‘lib, Nozik belim qilday bo‘lib. // Xudoyim, meni ayirma. Oy Norguljonday sanamdan. // Farhodday tog‘larni qazsam qararmi, Majnunday cho‘llarni kezsam bo‘larmi.*

2. Qudratli hayvonlar va har xil jonivorlarga o‘xshatiladi: *sherday, ajdarhodday, ayiqday, yo‘lbarsday, norday, tuyaday, moyaday, tulporday, kiyikday* kabilar. Misollar: *Silkib otdan ag‘dardi, So‘ltoq bo‘lib bo‘riday. // Cho‘ponlar ot qo‘yadi. To‘qaydagi sherday bo‘b.*

3. Har xil qushlar, parrandalar, mayda jonivorlar va ularning tuxumiga o‘xshatiladi: *tovusday, to‘tiday, to‘tiqushday, maynaday, semurg‘day, qushday, chivinday, chigirtkaday, qumursqaday, ilonday, tuxumday* kabilar. Misollar: *O‘tirishlaring to‘rg‘ayday, Qomating tovus misoli. // Ikkovimiz bir bo‘lsak, To‘tiqush bilan maynaday. // Tuxumday bo‘lib ko‘rinar, Norguloyjonning o‘tovi.*

4. Har xil epik makonlar va tabiat unsurlariga o‘xshatiladi: dengizday, daryoday, tovday, toshday, suvday, oyday, yulduzday, qishday, yashinday, shamolday, qirday, o‘tday, olovday kabilar. Misollar: Mavjlanib turgan dengizday, Boshida hil-hil ro‘moli. // Hapamatlaring yulduzday, Gavhar munchog‘ing oy bo‘lsa... // Javak-javakka shirqillab, Qoshida qizlar irkillab, xas tiysa yonboshidan. Kiyikday ketar irkillab...// Ikki ko‘zining yonishi, Bulutdan chiqqan yashinday.

5. Uy hayvonlari, o‘simliklar va daraxtlarning biror qismlariga o‘xshatiladi: qo‘yday, otday, toyday, itday, gulday, olmaday, qizil gulday, yaprog‘day, tariqday, guruchday, bog‘day kabilar. Misollar: Asovliging toyday bo‘lib, / Yuvoshliging qo‘yday bo‘lib. // Yuqori tog‘ning yo‘llari, Yo‘lning chetida gullari, Bo‘g‘in-bo‘g‘in qamishday, Norguloyjonning qo‘llari. // ... Oyoqlaringning panjasi, Qushoyoqlarning guliday.

6. Har xil holat, harakat va vaziyatlarga o‘xshatish: qochguday, ketguday, o‘tguday, qolguday, bolday, qilday, o‘lguday, yotguday, tarkashday, mushtday, moxovday, qanorday, ikki bo‘lguday kabilar. Misollar: Rosa to‘lishgan sonlaring, Chertsam yorilib ketguday, Cho‘ponga tegsa shamoli Oltoy turolmay yotguday. // Norguloy o‘tsa o‘ralib, Har qadammida buralib. Ko‘ylakkka sig‘may uchasi, Ikki bo‘lguday tiralib.

7. Qimmatbaho jismlar va qurol-aslahalarga o‘xshatiladi: durday, sadafday, oltinday, kumushday, yoyday, oqtoshday, po‘latday kabilar.

8. Ma‘lum bir shahar va boshqa aholi yashash maskanlariga o‘xshatiladi: shaharday, Samarqandday, Buxoroday kabi. Misollar: Bilak uzuging oltindan, Samarqand bilan Buxorday, Yaltillab turar ko‘zlari, Sakson ikki ming shaharday.

Doston matnida uchraydigan, jonli ijro jarayonida faol timsol sifatida qo‘llaniladigan so‘zlarning har biri alohida lingvopoetik xususiyatlarga ega bo‘lgani bois ular muayyan tarzda o‘rganilishi lozim. Biz bu o‘rinda Qodir baxshi dostoni tilida faol qo‘llanilgan *gul, daryo, yashin, bo‘ta, oy, za‘faron,*

bol, yaproq, tariq va boshqa timsollarni nazarda tutdik. Ulardan quyidagilarni o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: *gul, sher, oy so'zlari*.

Gul timsoli o'zbek xalq qo'shiqlari lingvopoetikasini tadqiq etgan M.Yoqubbekova tomonidan muvaffaqiyatli o'rganilgan. Shunga qaramay xalq dostonlari tilida faol qo'llaniladigan gul timsolining lingvopoetik xususiyatlari hali yetarlicha tadqiq etilmagan, deb o'ylamiz.

Gul lesemasi o'zbek tilida keng istemoldagi so'z sifatida qaraladi. Gul leksemasining lug'aviy ma'nolari ikki tomli va besh jildli izohli lug'atlarda muxtasar bayon etilgan. 1981 yilda nashr etilgan 2 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da gul leksemasining beshta ma'nosi keltiriladi va izohlanadi. Bundan tashqari, gul leksemasi asosidan yasalgan 50 ta yangi so'zlar ham ketma-ket keltirilib, izohlangan. Besh jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa gul leksemasining yettita ma'nosi keltiriladi va izohlanadi. Shuningdek, ushbu leksema asosida yasalgan yangi so'zlar ham kiritilgan va izohlari berilgan. "Navoiy asarlarining izohli lug'ati"da gul leksemasining 12 ta ma'nosi ko'rsatiladi va shu asosdan yasalgan so'zlar 50 dan ortiqligi ko'rsatiladi. Quyida besh jildli izohli lug'atda gul leksemasiga berilgan izohlar bilan tanishamiz.

GUL I [f. — chechak] **1 bot.** Yopiq urug'li o'simliklarning urchish uchun xizmat qiladigan, gulband, kosacha barglar, toj barglar, changchilar va urug'chidan iborat qismi. *Olma guli. Nok guli. - Nurining hovlisidagi gilolar gullagan. Ularning oppoq, ko'rkam gullari quyosh nurida juda nafis tovlanar.* Oybek, Tanlangan asarlar.

2 Atirgul va umuman ziynat uchun ekiladigan yoki tabiiy, o'zi o'sadigan gulli o'simliklar; chechaklar. *Pushti gul. Oq gul. Qo'qon gul. Tikansiz gul bo'lmas, mashaqqatsiz — hunar.* Maqol. - *Dala yo'lining ikki tomonidagi bog'lar tutash gullar bilan qoplangan.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Supalarning oralariga, atrofiga anvoi gullar ekilgan.* A.Qahhor, Asror bobo.

Qizil gul q. qizil 1.

Tuvak gul Tuvakda o'stiriladigan xonaki gul.

3 Biror narsaga tabiatdagi gullar shaklida chizib, tikib, bosib yoki o'yib tushirilgan bezak, naqsh; ornament. *Tez kunda albomning varaqlari fotosuratlarga va bo'yoq qalamda chizilgan gullarga bezandi.* H.Nazir, Cho'l havosi. *Mehrini esa do'ppisining gulidan tanidi.* SH.Rashidov, Bo'rondan kuchli.

4 *ko'chma poet. Go'zal. Gulni gulga qo'sh.* Maqol. - Ikkovi ham uzilmagan gul. Oybek, Tanlangan asarlar. *Bermagil yovuzlarga bir daqiqa xushnudlik, Gul Vatanning mard o'g'li, ko'kragingni qalqon qil.* G'ayraty.

5 *ko'chma* (1-sh. egalik qo'shimchasi bilan murojaat shakli) Yor, sevikli ayol. *Gulim, senga aytar so'zim bor. - Maktubimga javob yozmading, dildor, gulim ham bahorim sensan, Gulbahor.* M.Alaviya.

6 *ko'chma* (3-sh. egalik qo'shimchasi bilan) Eng yaxshisi, sarasi; fayz kirituvchisi, qizituvchisi. *Yigit (lar) ning guli. Ziyolilarning guli. - Shoh qiz, shakar qiz, qizlarning guli, Qoshlaringni ko'rsatgil, men uning quli.* S.Ayniy, Doxunda. *Yigitali kelin-kuyovning maqsadi, borar manzilini bilsa ham, ularning salomlariga alik olgach, ko'ngil uchun so'radi: -Ha, yigitning guli, yo'lingiz bo'lsin?! T.Malik, Ajab dunyo. Fasli bahor. Qo'shnim G'afur G'ulomning ellik yilligi. O'shanda Bulbul Mamedov to'yxonaning guli bo'lgan edi.* H.Nazir, Maftuningman, Ozarbayjon.

7 *etn.* Bahorda, gullar ochilganda, marhum xotirasiga bag'ishlab uning yiliga qadar o'tkaziladigan marosim. *Cholning yostig'i tagidan topilgan pul uni ko'mib kelishgagina yetdi. Hali bu yoqda uchi, yettisi, yigirmasi, fotihaxonligi, iftorligi, ikki hayiti, guli, qovoq oshi, qovun-uzumi, yil oshisi, oq solar va hokazolar bor.* M.Osim, Tilsiz guvoh.

Gul tashlamoq 1) gul-naqsh bilan qoplanmoq (qishda muz naqshi bilan qoplangan oyna haqida); 2) mog'orlamoq. *Non gul tashlabdi.*

Gul qilmoq Yashnatmoq, obod qilmoq; qizitmoq. *Xarob bo'lgan ro'zg'orni Ishlab-ishlab gul qilgan. «Oysuluv». O'lan aytib, to'ylarni gul qilasiz, Bu xizrni o'zingizga pir qilasiz. «Oq olma, qizil olma».*

O‘n gulidan bittasi ham ochilmagan Yosh, navqiron odam haqida. *Ana shu xayollar Begimxonni bezovta qilardi: -O‘n gulimdan bir gulim ochilmay turib, tul bo‘lib qoldimmi?! — deb o‘ksindi u.* I.Rahim, Chin muhabbat.

Qo‘li gul Har ishga mohir, o‘z ishining ustasi. *Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor, qo‘li gul odam.* A.Qahhor, Xotinlar.

GUL II tib. Qizilcha, qizamiq va boshqa ba’zi bir kasalliklar bilan og‘rigan vaqtda badanda paydo bo‘ladigan mayda qizil toshma. *Bolaga gul toshdi. - Uning bir ko‘ziga gul tushib, ko‘rolmay qolgach, xalq uni Nazirko‘r deb atay boshlagandi.* J. Sharipov, Xorazm¹.

Endi Qodir baxshi dostonida gul leksemaning qo‘llanishini misollar asosida izohlashga harakat qilamiz: *Bugungi kunda gulday bo‘lgan tarzim bor, Bo‘ynimda oxiri o‘lar qarzim bor. Oting nima, senga aytar so‘zim bor, Bilsang aytgin, chanqovuzni kim chaldi?! // Qiz deganning yuzi gulday bo‘lmasa, Quchoqlasa beli qilday bo‘lmasa. Mehnat qilib qaliniga mol berma, Qiz sultoni Norguloyday bo‘lmasa.*

Sher leksemasi ham umumistemol so‘zlaridan biri bo‘lib, xalq dostonlari tilida lingvopoetik vazifa bajaradi. Besh jildli izohli lug‘atda leksemaning ikki ma’nosi izohlangan:

SHER [f. - arslon; botir, jasur; asad] **1** Mushuksimonlar oilasiga mansub, kalta va sarg‘ish yungli (erkaklari esa qalin yolli) yirik sutemizuvchi yirtqich hayvon; arslon. *Ovchining zo‘ri sher otadi, Dehqonning zo‘ri yer ochadi. Maqol. O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil.* Maqol. *Bular [uch og‘ayni botirlar] tushgan to‘qayning narigi tomonida bir sherning makoni bor edi.* “Ertaklar”.

2 ko‘chma Shaxsni sherga nisbatlab ataydi (“azamat”, “botir”, “polvon” ma’nosida). *Bu hujjatni butun rayonga tarqatmoqchimiz, sher, obro‘ying oshib, cho‘qqiga ko‘tarilayotganingni bilasanmi?* L. Rahim, Ixlos. *-Balli, sher, xatni*

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 1-jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti., 2006. 516-517-betlar.

qo'lingizdan kim oldi? -Bir chol. A. Qodiriy, O'tgan kunlar. Fig'on qilgan bunda sherlar, Yo'lbars, qoplon, bunda erlar.. "Bahrom va Gulandom".

Sher bo'lmoq ayn. sherlanmoq. *Ichkilikning zo'ridan sher bo'lib ketgan Yazturdi endi ko'cha harakati qoidasini unutib qo'ygan edi. Gazetadan. Balli, azamat, bugun jang vaqtida sher bo'lib ketding. H. Tursunqulov, Hayotim qissasi*¹.

OY 1 (O - katta) astr. Quyoshdan nur olib, yog'du sochuvchi samoviy jism, Yerning tabiiy yo'ldoshi. *O'n to'rt kunlik oy. To'lin oy. Oy nuri. Oy chiqdi. Oy botdi. Oyning yuzidagi dog'lar. Oyning Yer atrofida aylanishi. Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. Maqol. Kechki gullar ochilib turibdi. Ko'kda tanho oy kezmogda. I. Rahim, Chin muhabbat.*

Oy yuz *Chiroyli yuz, go'zal yuz. Oy yuzing qora chimmat zulmidan qutultirg'il. Chiq qorong'i turmushdan, nur ichinda javlon qil. Hamza. Oy desa - oyga, kun desa kunga o'xshaydi. Juda go'zal, juda ham chiroyli.*

2 Astronomik yilning o'n ikkidan biriga - Oyning Quyosh atrofidan bir marta aylanib chiqish muddatiga yaqin vaqt oralig'i; o'lchov birligi: 28, 29, 30 yoki 31 kunlik davr. *Oy boshi. May oyi. Bir yil - o'n ikki oy. Bu orada uch oy o'tdi. Yoz oylari ham o'tib ketdi. Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'. Maqol. O'g'lim bechora oy o'tmasdan bo'zchining mokisidek qatnab tursa. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.*

Oydan oy, kundankun o'tib *Ancha vaqt o'tib. Oydan oy, kundan kun o'tar daryodil, Menga tanho bo'lgan sen yo'qsan mohim. Habib Abdunazar, Anjir guli. Oykun(lar) o'tib* *Vaqt, umri, hayoti kechib. Shu yo'sin oromsizlik va besaranjomlik ichida [Otabekning] oykunlari o'tib turar edi. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.*

3 Uch-to'rt kunlik oy shaklidagi bezak yoki belgi. *Mezana ustidagi oy.*

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. 4-jild. -Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti., 2008. ...-bet.

4 Ayollar ismi tarkibiga kiradi yoki ayollar nomiga qo‘shilib, erkalash, hurmatni bildiradi. Mas: Oyposhsha, Oygiz, Oyto‘ti, Oynisa; Tursunoy, Shirmonoy, Qunduzoy.

Oy borib, omon kel Safarga ketayotgan kimsaga yaxshilik tilab aytiladigan ibora, oq yo‘l tilash. U [Elmurod] yo‘lda ketar ekan.. «Oy borib, omon keling!» deb, oq yo‘l tilab qolgan Gulsumni xiylagacha o‘ylab yotdi. P. Tursun, O‘qituvchi. **Oy ko‘rmoq** Hayz ko‘rmoq. **Oyi to‘ldi** Tug‘ish vaqti yetdi. Kumushning oyi to‘lmasdanoq, u [onasi] beshik yasatish bilan mashg‘ul edi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar. **Oy-kuni yaqin** Tug‘ish arafasida, oldida¹.

“Kelinoy yoki Norguloy” dostoni matnida sher oy so‘zlari lingvopoetik vazifa bajarish uchun o‘xshatish vositasi sifatida –day affiksini qabul qilgan: *Jonivor hayvon, yur boraylik, O‘ynab tayla sherday bo‘lib. // cho‘ponlar ot qo‘yadi, To‘qaydagi **sherday** bo‘b. // Tandirda noning **oycha bor**, Qo‘zi quyrug‘i moycha bor. Hech keltirmaysan qoshingga, Asovliqlaring toycha bor. // Jo‘nadi bedov hirkillab, Afzali **oyday** yarqillab... Ketayotir dirkillab, Oqar suvday sharqillab, Qimtanadi jonivor, Olqorday bo‘b dirkillab. // Osovligi toyday bo‘b, Yuvoshligi qo‘yday bo‘b. Qizlari yulduz bo‘lsa, O‘zi to‘lgan **oyday** bo‘b. Ketayotir Oypari, Hamma qizladan ilgari. // Badanlaring qorday bo‘lib, Oq o‘toying **oyday** bo‘lib.*

Ko‘rinadiki, gul, sher va oy leksemalarining lingvopoetik tabiati xalq dostonlari tilida timsol sifatida qo‘llanishi uchun keng imkoniyatlar mavjud. Qodir baxshining mazkur dostonida qo‘llanilgan o‘xshatishlar, metafora va sifatlashlarda ham gul, oy, sher leksemasining qo‘llanish darajasi juda yuqori.

Bizga ma’lumki, xalq og‘zaki poetik ijodi namunalarida epik qahramonlar tabiatidagi go‘zallik, maftunkorlik, nafosat, muattarlik, xushmuomalalik kabi ma’noviy fazilatlar va sifatlarni ochib berishda ko‘pincha gul leksemasi qo‘llaniladi va ajoyib o‘xshatishlar yaratiladi. Bu o‘z navbatida o‘quvchi va

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 3-jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti., 2008. ...-bet.

tinglovchida emotsional-eksperissivlikni hosil qilishda katta o‘rin tutadi. Buni biz tahlilga tortgan dostonida qo‘llanilgan o‘xshatishlar ham tasdiqlaydi.

Xalq dostonlari tilida qo‘llangan gul leksemasi, ya’ni gul o‘simligiga o‘xshatilish hodisasida *-day* yordamida yasalgan so‘zlarning qo‘llanishi ancha faol. Bunday qo‘llanish Qodir baxshi ijodi uchun ham xos xususiyat sanaladi: *Otdi cho‘lda o‘ynatti, Gulday ustin jaynatdi.*

Doston matni bo‘yicha kuzatuvlarimizdan shu narsa aniq bo‘ldiki, epik qahramonlarga nisbatan *ochilmoq, so‘lmoq, sarg‘aymoq, za‘faron bo‘lmoq, xazon bo‘lmoq, yashnamoq* (shevada jaynamoq) singari so‘z va birikmalar qo‘llanilganda ko‘p o‘rinlarda gulga, ayrim hollarda olma va boshqa mevalarga o‘xshatiladi. Quyida ana shu fe‘llar bilan munosabatga kirishgan gul leksemasi tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Yashnamoq fe‘lining lug‘aviy ma’nolari “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha berilgan:

YASHNAMOQ 1 Barq urib o‘smoq, gullamoq, guli ochilmoq. *Oldin ekilgan g‘o‘zalarimiz esa kun sayin yashnayapti.* R. Azizxo‘jayev, Yashil chayla. *Yuz ochmish, yashnamish sumbul va lola.* G‘ayratiy.

2 O‘ziga tortadigan go‘zal holga kelmoq; yorqinlik, ko‘rkamlik kasb etmoq; go‘zallashmoq. *Bahor kelishi bilan dala yashnar. El keltirib yoydi poyandoz, Yashnab ketdi hovuz bo‘ylari.* E. Rahim. *Gulorning bo‘yi o‘sib, ko‘kragi to‘lishib, butun gavdasi qizlik latofati bilan yashnagan chog‘da, boyvachcha uni ko‘z tagiga olib qo‘ygan edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *U [Asrora] kirgan uy yashnab ketadi.* S. Ahmad, Ufq.

3 ko‘chma Rivoj topmoq, kamolga erishmoq; avj olmoq. *[Yo‘lchi:] Xalq borgan sari pachaqlanaveradi, boylar yashnayveradi, negaki ildizi kuchimizni so‘radida.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Odamlarda g‘ayrat va tashabbus yashnab ketdi.* A. Qahhor. *Qo‘shchinor chiroqlari. Saidiyning qalbidagi so‘na boshlagan muhabbat cho‘g‘i yashnay boshladi.* A. Qahhor, Sarob.

4 Porlab, chaqnab, yashnab ko‘rinmoq, namoyon bo‘lmoq. *Yulduzlar charog‘on bo‘lib yashnamoqda. Qo‘sha-qo‘sha gilamlar yashnagan bu uy, Unsin yolg‘iz qolarkan, allaqanday sovuq tuyuldi.* Oybek. Tanlangan asarlar.

5 ko‘chma Yayramoq, yozilmoq. *Yangi turmush bog‘larinda Yosh ko‘ngillar yashnasin! Hamza. Har zamon bo‘l bilim o‘chog‘ida, Yashnagan ma‘rifat quchog‘ida. G‘ayratii. Paranjini o‘t-otashga Tashlaganim-tashlagan, Davlat qushi qo‘ngan boshga, Yashnaganim-yashnagan.* 3. Diyor¹.

Ushbu so‘zning shevadagi shakli jaynamoq bevosita –day affiksini olgan gul so‘zi bilan munosabatga kirishgan. So‘zning ko‘chma ma‘nosi Qodir baxshining “Kelinoy yoki Norguloy” dostonida epik qahramonning xursandchiligini ifodalash uchun qo‘llanganini ko‘ramiz: *Otdi cho‘lda o‘ynatti, Gulday ustin jaynatdi.*

Baxshi dostoni matnida ayrim o‘rinlarda gulday o‘rniga olmaday so‘zi sinonim sifatida qo‘llanilgani yoki har ikkalasining ham matn tarkibida kelishini kuzatish ham mumkin. Olmaday so‘zi so‘ldirmoq fe‘li bilan munosabatga kirishgan va yuqorida ta’kidlaganimizdek, bir qancha ma’nolar o‘z ifodasini topadi: *Olmaday so‘ldirma gulday yuzingdi, Ko‘zlaringda selob yoshing tizildi.*

Besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da so‘lmoq so‘zining quyidagi ma’nolari qayd etilgan:

SO‘LMOQ 1 O‘sib turgan yoki yangi uzil-gan vaqtidagi holatini yo‘qotmoq; shalpaymoq (o‘simlik haqida). *Umid so‘lib, qovjirab qolgan g‘o‘zalar tepasida aylanardi.* Mirmuhsin, Umid. *Qizil gullar aytar: Hech so‘lmagayman, Yomonning qo‘lida xor bo‘lmagayman.* «Qo‘shiklar».

2 ko‘chma G‘am-tashvishdan yoki dard-alam chekib, o‘zini oldirmoq, rangi ketib, quti o‘chib, siniqib, so‘lg‘in tus olmoq; siniqmoq. *El bilan bo‘lsang - bo‘lasan, Eldan chiqsang - so‘lasan.* Maqol. *Qop-qora ko‘zing Yoshlarga to‘lmish, Oy kabi yuzing Yaproqday so‘lmish.* Mirtemir, Asarlar. *Simobdek*

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 5-jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti., 2008. ...-bet.

beqaror, kuch-g'ayrati taniga sig'magan o't-olov yigit endi so'lgan, taqdirning bemahal zarbasidan esankirab qolgandi. S. Ahmad, Ufq¹.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da sarg‘aymoq so‘zining o‘z ma’nosida sariq tus olmoq, ko‘chma ma’noda esa zoriqib, toliqib ketmoq; mahtal, intiq bo‘lmoq, qattiq yalinmoq, iltijo qilmoq, iztirob chekmoq singari ma’nolarda kelishi qayd etilgan. Shundan so‘ng sarg‘aytirmoq fe’lining ma’nolari va qaysi shakllarda kelishi haqida ma’lumotlar keltirilgan:

SARG‘AYMOQ 1 Sariq tus olmoq. *Kuz tushdi, barglar sarg‘aydi. O‘rik oltinday sarg‘ayib pishibdi. - Issiq jon deydilar, jon bo‘lsa bo‘lar, Payt kelsa, chechak ham sarg‘ayar, so‘lar. A.Oripov, Yillar armoni.*

2 ko‘chma Zoriqib, toliqib kutmoq, Mahtal, intiq bo‘lmoq. *Idorama-idora bir imzo uchun sarg‘ayib, haftalab umrim zoye ketgan vaqtlar bo‘ldi. X.Sultonov, Onamning yurti. Ayriding to‘rangdan, sochingni yoyib Yig‘lay ber, buvishim, endi sarg‘ayib. «Alpomish».*

3 ko‘chma Qattiq yalinmoq, iltijo qilmoq; iztirob chekmoq. *Momo, sizga so‘z so‘zladik mung‘ayib, Arz aytamiz endi sizga sarg‘ayib. «Rustam».*

SARG‘AYTIRMOQ 1 Sarg‘aymoq **1** fl. ort.n. *Jiydani sarg‘aytirib, anorni qizartirgan, paxtani yetishtirib, qovunni to‘rlatgan dalalar xumor qiladi, — dedi Elmurod. Shuxrat, Shinelli yillar. -Sen bilan gaplashaman, deb ko‘ylagimning etagini [dazmolda] sarg‘aytirib qo‘ydim, - dedi Qodir Sattorga. «Sharq yulduzi».*

2 ko‘chma Ko‘p kuttirib mahtal, intizor qilmoq. *Unga yo‘q, deysan, bunga yo‘q, deysan, kimni xohlaysan o‘zi? Mana, singlingning ham bo‘yi yetib qoldi, qachongacha bizni sarg‘aytirasan? «Yoshlik».*

3 ko‘chma Qattiq iztirobga, juda og‘ir ahvolga solmoq. *G‘anim bosmas, dedim, o‘lmay izimni, Farzand dog‘i sarg‘aytirdi yuzimni. «Gulshanbog‘».*

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 3-jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti., 2008. ...-bet.

SARG‘ARMOQ *esk. kam qo‘ll. ayn. sarg‘aymoq* **1.** *Yoshlik — zangor fasl, kechdi, sarg‘ardi.* R.Parfi, Ko‘zlar¹.

Ko‘ramizki, sarg‘aymoq va sarg‘aytirmoq fe‘llari matnlar tarkibida bir xil yoki bir-biriga yaqin ma‘no-mazmunni ifodalab keladi. Sarg‘armoq fe‘li esa kam qo‘llaniladi. Sarg‘aymoq fe‘li sariq tus olmoq kabi o‘z ma‘nosi orqali tilimizdagi za‘faron so‘zi bilan ham ma‘nodosh bo‘la oladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da za‘faron so‘zi o‘zlashma so‘z ekanligi, sifat sifatida sap-sariq, somon rang ma‘nolarini anglatishi qayd etib o‘tilgan:

ZA‘FARON [*a. ziravor o‘simlik, za‘far*] **1** *ot* Ingichka uzun bargli, to‘q sariq gulli, piyozsimon ildizli o‘simlik va uning gulidan tayyorlanadigan, ovqatni xushta‘m va rangdor qiladigan ziravor.

2 sft. Sap-sariq, somonrang. *Unutaman bir kun barchasin, Ular bari qoladi sizga: Za‘faron bog‘, osmon parchasi, Shamol, daryo, maysa, sivilg‘a. X.Davron, Bolalikning ovozi. Yigitning olijanob himmatidan mamnun bo‘lib, za‘faron yuzlarimga andak tabassum chiqdi. G‘ayraty, Dovdirash. Bir yonda lojuvard Bahri muhit bor, Bir yonda za‘faron Sahroi kabir. A.Oripov, Yurtim shamoli*².

Qodir baxshi dostoni matnida so‘lmoq so‘zi o‘rnida za‘faron yoki sarg‘aymoq so‘zlari sinonim sifatida qo‘llanilgan. Ba‘zi o‘rinlarda har ikkalasi ham matn tarkibida birday qatnashgan va xilma-xil leksik-semantik ma‘nolarni ifodalashga xizmat qilgan: *G‘am bilan sarg‘aydi guldayin dildor, Minsang parvoz qilar ostingda tulpor. // Men turibman o‘laman deb, mung‘ayib, Gulday yuzim za‘faronday sarg‘ayib.*

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *ochilmoq* so‘zining quyidagi oltita ma‘nosi keltirilgan va izohlangan:

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 3-jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti., 2007. 457-bet.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 2-jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti., 2007. 141-bet.

OCHILMOQ 1 Ochmoq 1 - 8 f.l. majh. n. *Eshik ochildi. Sandiq ochildi. Yo'l ochildi. Yangi maktab ochildi. Qing'ir ish qirq yildan keyin ham ochiladi.* Maqol. - *Bir haftaga qolmay kanalga suv ochiladi.* S.Ahmad, Ufq. *Mana shu tog'larning ikki tarafidagi adirlar, Makrit cho'lidan ochilgan yerlarning hammasi meniki, menga qaraydi.* S.Ahmad, Jimjitlik. *Haykalchaning ochilish marosimi bo'lib o'tganidan bexabar, parda tutishga hojat qolmaganini bshshshmaydi.* M.M.Do'st, Lolazor. *Yaqinrog'ingizda o'lmoq uchun dushman tomonidan uyingizga ochilgan tuynukchaga kirdim.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *[Hasanali] Uzoq o'ylagandan so'ng ishning ochilmay qolgan qismini yechishni boshqa vaqtga qoldirmoqchi bo'ldi.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

2 Ochmoq 1, 2, 9 - 12 fl. o'zl. n. *Fikri ochildi. Rangi ochildi. - Keldi ochilur chog'ing, o'zliging namoyon qil, Parchalab kishanlarni, har tomon pirishon qil.* Hamza. *Bu paxta ekan-ku, hali shoshmay turinglar, ochilgan xotinlar boshqatdan paranjiga kiradi.* S.Ahmad, Hukm. *Tomlardagi lolalar qip-qizil bo'lib ochildi.* M.Ismoiliiy, Farg'ona t.o. *So'nggi quyoshli kunlarda naxma yana qiyg'os ochildi.* I.Rahim, Ixlos.

3 Boshlanmoq, ish boshlamoq. *Ertaga shu muammoga bag'ishlangan olimlarning yig'ilishi ochiladi.* S.Zunnunova, Ko'k chiroq.

4 Ko'rinmoq, namoyon bo'lmoq. *Yo'lchining ko'ziga jannatday katta bog' manzarasi ochildi, tomosha qilib, keksa tog'aning orqasidan yura berdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Agar mana shu Muzloq tog'ning sirtiga chiqilsa, kishining ko'zi oldida biri-biriga zid ikki dunyo ochiladi.* M.Ismoiliiy, Farg'ona t.o.

Basharasi ochilmoq Kirdikori, aybi, aslida kimligi fosh bo'lmoq. *Tyžpu, Rahimjon Mo'ydinovga tuhmat qilganlarning avra astari ag'darildi, haqiqiy basharasi ochildi.* «Mushtum».

5 Xafaligi yoki qahr-g'azabi yo'qolib xushnud bo'lmoq, yozilmoq. - *Goho biron kishi [buvimnshg] ko'nglini og'ritganda, men unga bir og'iz yumshoq gap aytsam, o'sha zamoni ochilib keta qolardi, — dedi Kenja.*

H.Nazir, Asarlar. *Elmurod uning [Gulsumning] bu qadar ochilib kulganini birinchi ko‘rishi edi. U bundan rohat qildi.* P.Tursun, O‘qituvchi.

Bahri dili ochilmoq Kayfiyati yaxshi bo‘lmoq, chehrasi yorishmoq. *Shiypun orqasidagi g‘o‘zalarni ko‘rib, Payg‘omovning bahri dili ochilib ketdi.* S.Nurov, Maysalarni ayozi urmaydi.

Chehrasi ochilmoq ayn. **Bahri dili ochilmoq.**

6 Husniga husn qo‘shilib, tobora chiroyli bo‘lmoq, go‘zallashmoq. *Zunnunovning nazarida Saodatxon yanada ochilib ketganga o‘xshaydi.* I.Rahim, Ixlos. *Qora ko‘ylak ichida bo‘g‘ilib yotgan ekansan. Qara, naq shaftoli gulidek ochilibsan, kel, pardozi qilamiz.* N.Safarov, Sharq tongi. *Bashirjon uzoqroqdan kelinga tikilib turarkan: «Juda ochilib ketibdi», deb o‘yladi.* N.Aminov, Qahqaha.

Baxting ochilsin q. baxt 2.

Jag‘i ochilmoq To‘xtovsiz gapirmoq; ko‘p, uzoq gapirmoq. *Oshno bir muddat jimib qoldi, lekin lahza o‘tib, tag‘in jag‘i ochildi.* M.M.Do‘st, Lolazor.

Ishtahasi ochilmoq Ishtiyoq bilan ovqat yemoq; -*Ana endi, charchoq ham unutiladi, ishtaha ham ochiladi. Uning gapi to‘g‘ri chiqdi.* C.Ahmad, Jimjitlik.

Ko‘zi ochilmoq q. ko‘z. *Ta‘zirimni yeganim shu bo‘ldiki, ko‘zim ochildi, tushunib oldim.* S.Zunnunova, Olov.

Og‘zi ochilmoq Hayron bo‘lmoq. *Bir haftadan keyin qiz Jamolzodaning ustaxonasiga tashrif buyurdi. U «Ko‘kko‘l tongi»ni ko‘rib, og‘zi ochilib qoldi. O‘shanda ko‘rgani hozirgi polotnoning oldida oddiy ermak edi, xolos. «Yoshlik».*

Havo ochildi Havo bulutdan tozalandi. *Osmonni qoplagan chang-to‘zon allaqachon g‘oyib bo‘ldi, havo charaqlab ochilib ketdi.* SH.Rashidov, Bo‘rondan kuchli¹.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. Uchinchi jild. –Toshkent, 2007, 163-164-betlar.

Lugʻatda qayd etilgan maʼnolar Qodir baxshi dostonida epik qahramonlarning kayfiyati yoki biror holatdagi muayyan xatti-harakatini ifodalashga xizmat qilganini koʻramiz: *Yangi ochilgan gulday boʻlib, / Ham-malari birday boʻlib. // Bogʻda ochilgan gulday boʻlib, / Jannatdagi hurday boʻlib.*

Shuni ham taʼkidlash kerakki, jonli soʻzlashuv nutqida –day affiksi –dek affiksi bilan bimalol oʻrin almasha oladi. Biroq xalq dostonlari lingvopoetikasi boʻyicha tadqiqot oʻtkazgan olimlarning kuzatishicha, dostonlar matnida –day affiksining –dek affiksi bilan almashinishi chegaralangan. Buning asosiy sababi shundaki, –dek affiksi ham xuddi –day affiksi kabi tenglashtirish, qiyoslash xususiyatiga ega ekanligidadir. “Kelinoy yoki Norguloy” dostoni matnida ham shu holatni koʻrish mumkin. Doston matnida –day affiksi koʻp qoʻllanilgani holda, –dek affiksining qoʻllanish chegarasi ancha cheklangan.

Yana shuni ham taʼkidlash joizki, –day affiksining –boʻb/boʻlib ravishdoshi bilan birga kelishi ham baxshining dostoni matnida ancha faol qoʻllanilgan: *Ikki zulfak nurday boʻlib, Oʻzing uchar hurday boʻlib. // Badanlaring qorday boʻlib. Oq oʻtoving oyday boʻlib. // Asovliging toyday boʻlib, Yuvoshliging qoʻyday boʻlib.*

Oʻzbek tili ogʻzaki nutqida –day boʻb/boʻlib shaklining –ga oʻxshab shakli bilan maʼnodoshligi kuzatiladi.

“Kelinoy yoki Norguloy” dostoni matnidagi lingvopoetik oʻxshatishlar tarkibida ham morfologik, ham leksik vositalar mavjud. Bu oʻrinda oʻxshatish etaloniga qoʻshimcha qoʻshish va undan soʻng leksik birlikni keltirish yordamida oʻxshatish munosabatini ifodalovchi vositalarni nazarda tutamiz. Bunday vositalar orasida –ga oʻxshamoq varianti boshqa variantlarga nisbatan faol qoʻllanadigan vosita sanaladi. Bu vosita doston matnidagi sheʼriy misralarning ifodaliligini, taʼsirchanligini oshirishi va har qanday oʻquvchi yoki tinglovchini oʻziga jalb etishi bilan eʼtiborga loyiqdir.

Oʻxshaydi (*oʻxshar, oʻxshatdim*) vositasi bilan hosil boʻlgan oʻxshatishlarda bir predmet ikkinchi predmetga aynan oʻxshatiladi. Matn

tarkibidagi, she'riy misradagi mantiqiy urg'u –o'xshaydi (o'xshar, o'xshatdim) so'zida bo'lib, bu so'z ta'kidni alohida kuchaytirishda muhim vazifa bajaradi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da o'xshamoq leksemasining quyidagi ma'nolari zikr etilgan:

O'XSHAMOQ 1 Xususiyat, xislat, tuzilish va b. belgisi bilan bir xillikka (o'xshashlikka) ega bo'lmoq; o'xshash bo'lmoq. *Bola otasiga o'xshaydi. Bu suyuqlik moyga o'xshaydi. Ular bir-biriga o'xshamaydi. Mol egasiga o'xshamasa, harom o'ladi.* Maqol. - *Chirchiq bo'yi qishloqlaridagi uylar bir-biriga o'xshaydi.* H.G'ulom, Mash'al. ...*domla sochlarini bo'yatibdilar!.. Azbaroyi xudo, kuya tushgan po'stakka o'xshaydi.* A. Qahhor, To'yda aza.

2 J.k. shaklidagi so'z bilan shu so'z anglatgan narsa haqidagi taxminni, taxminiy tasavvurni bildiradi; bo'lib ko'rinmoq. *Ahvoli chatoqqa o'xshaydi. Yur, bir aylanib kelamiz, zerikkanga o'xshaysan. Bugun kun qattiq isiydiganga o'xshaydi.* - *Gapiga qaraganda, xursandga o'xshaydi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

3 s.t. Ko'ngildagidek bo'lmoq, o'rinlamoq. *Ish uncha o'xshamadi. Osh juda o'xshabdi.*

4 (rvdsh. sfdsh. har. n. shaklida — **o'xshab, o'xshagan, o'xshash**) ko'm. vzf. Qiyos, o'xshatish munosabatlarini ifodalaydi; kabi, singari. *Podadan qochgan buzoqqa o'xshab, duch kelgan eshikka boshingni tiqaverasanmi?! Oybek, Tanlangan asarlar. Yaqinroq borib qarasa, uning boshi qiyshaygan, chekkasidan uvadaga o'xshagan bir narsa chiqib turibdi.* A.Qahhor, Oltin yulduz. *Erlar sevingandan kulsalar, sizga o'xshash qizlar yig'laydilar.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar¹.

Qodir baxshining dostoni matnida o'xshatmoq leksemasi ham faol qo'llanilgan birliklardan biri ekanligi aniq bo'ldi. Leksemaning o'xshar, o'xshatdim variantlari ham qo'llanilgan, lekin qo'llanish miqdori kam. O'xshatishning shakliy ko'rsatkichidagi fe'lining orttirma nisbat qo'shimchasi -t

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Uchinchi jild. –Toshkent, 2007, 185-bet.

ni olishi, tabiiyki, o'xshatish subyekting tushum kelishigida shakllanishini talab qiladi. Bu xil variantdagi vositaning qo'llanishi matn tarkibidagi she'riy motiv talabidan kelib chiqib, matnning yangicha jaranglashi, o'xshatishli band xalq she'riy o'lchovlarining odatdan tashqari bo'lishi uchun ham xizmat qiladi.

Yana bir mulohaza: Qodir baxshi Rahimov dostoni matnida qo'llanilgan *o'xshaydi*, (*o'xshar*, *o'xshatdim*) vositasida sinonim bo'lgan, to'g'rirog'i, qipchoq shevasidagi varianti *mengzaydi* (*mengzar*, *mengzadim*) ham o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi sifatida ishtirok etganligini kuzatamiz. Bu variant birlik shevaga xos qadimiy variant sanaladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham mengzamoq fe'li *o'xshamoq*, *o'xshatmoq* fe'llari ma'nolarida qo'llanishi ko'rsatilgan:

MENGZAMOQ shv. O'xshamoq, o'xshatmoq. *O'zini oynaga solib kuldi: -Shu turishda kimga mengzayman, toping-chi? S.Siyoyev, Yorug'lik. Jamoling mengzadim osmonda oyga, Qoshingni o'xshatdim egilgan yoyga. «Ravshan»¹.*

Shunday ekan, mengzamoq so'zi o'xshamoq sinonimi tarzida xalq og'zaki ijodida keng qo'llanilishi kuzatiladi. Qodir baxshi dostoni tilida ham xuddi shu holatni ko'rish mumkin.

Xullas, Qodir baxshi Rahimovning mazkur dostoni matnida *mengzaydi* (*mengzar*, *mengzadim*), *o'xshaydi* (*o'xshar*, *o'xshatdim*), *-day bo'b/bo'p*, *-day bo'lib*, *-dek bo'lib* kabi morfologik-leksik vositalar bilan o'xshatish qurilmalari hosil qilingan. Ularda morfologik uzv ham, leksik uzv ham o'xshatishni semantik jihatdan yuzaga chiqarish uchun xizmat qilish vazifasini bajargan. Bunday vositalarning matn tarkibida turlicha variantlarda qo'llanishi, ular hosil qiladigan har xil ma'no nozikliklarining rang-barangligini ta'minlagan.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Ikkinchi jild. –Toshkent, 2007, 579-bet.

Bob bo'yicha xulosa

1. Adabiy tilda faol qo'llanadigan va xalq dostonlari leksikasida qo'llangan o'xshatishlar o'z xususiyatlariga ko'ra bir-biriga yaqin, ular asosan yengil kulgu qo'zg'atishga xizmat qiladi. Adabiy tilda qo'llaniladigan o'xshatishlarda o'xshatish obrazi bilan o'xshatilayotgan obraz muayyan belgini bir-biriga uyg'unlashtiruvchi vosita *-day*, *-dek* hisoblansa, xalq dostonlarida bu vazifani *-day*, *-dayin* kabi o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari bajaradi.

2. O'xshatishlar turli obyektlar o'rtasida yuzaga keladi va ularni shartli ravishda quyidagicha ko'rsatish mumkin: a) jonli va jonsiz narsalar o'rtasida; b) holatlar o'rtasida; v) tabiat hodisalari bilan inson ruhiyati o'rtasida; g) inson xarakterini ochishda predmetlarning belgisi o'rtasida.

3. Xalq dostonlaridagi o'xshatishlarda o'xshatish obyekti ham, o'xshatish obrazi ham xalq tilidan, uning og'zaki nutqidan olingan. Ayni shu holat "Kelinoy yoki Norguloy" dostoni tilining xalqchilligini ta'minlashga va badiiy jihatdan yuksak darajada bo'lishiga xizmat qilgan.

4. Qodir baxshi Rahimov o'z dostonlari tilida o'xshatishlarning butun lisoniy-badiiy imkoniyatlarini to'liq ishga sola bilgan, xalq tilining zargari va ulkan so'z san'atkori sifatida yaratgan o'xshatishlari kuchli obrazlilik, so'z san'atidan foydalanish mahorati o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi.

5. O'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari o'xshatish qurilmasida yangi so'z hosil qilish, qo'shimcha ma'noni berish, gap bo'lagi vazifasini bajarish kabi o'rinlarda faoliyat ko'rsatadi, o'xshatish subekti va o'xshatish etaloni o'xshatishlarda vositalarsiz sintaktik yo'l bilan ham o'xshatish munosabatini ifodalaydi. Ana shu jihatdan olganda, Qodir baxshi dostonidagi qo'llangan har bir o'xshatish uning epik repertuaridagi ijodiy mahoratning mahsuli sanaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Tilshunoslik ilmda o'xshatishlarning bir necha tasniflari amalga oshirilgan. M.Mukarramov, N.Mahmudov, M.Yo'ldoshev, M.Yoqubbekova, D.Xudoyberganova, G.Jumanazarova singari tilshunos olimlarning tasniflari e'tiborga loyiq. Ular o'xshatishlarni poetik tabiatiga ko'ra, qo'llanishiga ko'ra, tuzilishiga ko'ra, sezgi va tasavvurlar orqali yuzaga kelishiga ko'ra tasnif etadilar.

2. Barcha xalq epik dostonlarida bo'lgani singari baxshining "Jorxun maston" dostonida ham badiiy tasvir vositalaridan biri sanalgan o'xshatishning an'anaviy ko'rinishi hamda shakllaridan keng foydalanilgan. Bu baxshi shoir quvvai hofizasining kengligidan, xalq jonli tili boyliklaridan ustalik bilan foydalana bilganidan dalolat beradi.

3. Lingvistik adabiyotlarda yana shu narsa ham ta'kidlanadiki, dostonlar kollektiv tomonidan yaratilgan, ya'ni uning ijrochilari bitta dostonchilik maktabi vakili bo'lmay, boshqa dostonchilik maktablarida ham shu dostonlar kuylangan va dostonlar tilidagi boshqa ijodkor dostonlarida ham qo'llanilgan bo'lsa, ularga nisbatan odatiy, odatdan tashqari, kutilgan va kutilmagan singari farqlovchi mantiqiy xulosalarga asosan, xususiy-muallif o'xshatishlari degan atama shartli ravishda qo'llaniladi.

4. Qodir baxshining ushbu dostonida no'anaviy o'xshatishlardan ham ustalik bilan foydalanilgan. Ma'lumki, bilim (ilm) turli narsa, voqea-hodisalarga o'xshatiladi. Baxshi shoir an'anaviy qo'llanishdan qochib, o'ziga xos yo'l tutadi. Bilimni zar tuvakdagi gulga o'xshatadi. Bunday o'xshatish ham no'anaviydir.

5. Xalq dostonlari tilida qo'llanilgan o'xshatishlar qatnashgan matnlarni kuzatgan tilshunoslarimizning yozishlaricha, *bo'lib/bo'b*, *ko'rib*, *qarab* singari bir qator fe'llar o'xshatish ko'rsatkichlaridan keyin kelib, ish-harakatning jarayonini, holatini bildirishga xizmat qiladi. Qodir baxshining mazkur

dostonida bu fe'llardan tashqari *chirqillab, jaynatmoq (shevada), chaqnaydi, chiqqan, yozgan* kabi fe'l shakllari o'xshatish ko'rsatkichini olgan so'zdan keyin yoki oldin qo'llanilganini ko'rish mumkin.

6. Adabiy tilda faol qo'llanadigan va xalq dostonlari leksikasida qo'llangan o'xshatishlar o'z xususiyatlariga ko'ra bir-biriga yaqin, ular asosan yengil kulgu qo'zg'atishga xizmat qiladi. Adabiy tilda qo'llaniladigan o'xshatishlarda o'xshatish obrazi bilan o'xshatilayotgan obraz muayyan belgini bir-biriga uyg'unlashtiruvchi vosita -day, -dek hisoblansa, xalq dostonlarida bu vazifani -day, -dayin kabi o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari bajaradi.

7. O'xshatishlar turli obyektlar o'rtasida yuzaga keladi va ularni shartli ravishda quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- a) jonli va jonsiz narsalar o'rtasida;
- b) holatlar o'rtasida;
- v) tabiat hodisalari bilan inson ruhiyati o'rtasida;
- g) inson xarakterini ochishda predmetlarning belgisi o'rtasida.

8. Xalq dostonlaridagi o'xshatishlarda o'xshatish obyekti ham, o'xshatish obrazi ham xalq tilidan, uning og'zaki nutqidan olingan. Ayni shu holat "Kelinoy yoki Norguloy" dostoni tilining xalqchilligini ta'minlashga va badiiy jihatdan yuksak darajada bo'lishiga xizmat qilgan.

9. Qodir baxshi Rahimov o'z dostonlari tilida o'xshatishlarning butun lisoniy-badiiy imkoniyatlarini to'liq ishga sola bilgan, xalq tilining zargari va ulkan so'z san'atkori sifatida yaratgan o'xshatishlari kuchli obrazlilik, so'z san'atidan foydalanish mahorati o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi.

10. O'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari o'xshatish qurilmasida yangi so'z hosil qilish, qo'shimcha ma'noni berish, gap bo'lagi vazifasini bajarish kabi o'rinlarda faoliyat ko'rsatadi, o'xshatish subyekti va o'xshatish etaloni o'xshatishlarda vositalarsiz sintaktik yo'l bilan ham o'xshatish munosabatini ifodalaydi. Ana shu jihatdan olganda, Qodir baxshi dostonida qo'llangan har bir o'xshatish uning epik repertuaridagi ijodiy mahoratning mahsuli sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat. 2008. -176 bet.
2. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili. –Toshkent: O'zbekiston. 1995.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998.
4. “Ma'rifat” gazetasi, 1999, 10 noyabr.
5. Aristotel. Poetika. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 240 bet.
6. “Kelinoy yoki Norguloy”. Doston. Aytuvchi: Qodir Rahimov. Yozib olib, nashrga tayyorlovchilar: Malik Murodov, Abduolim Ergashev. // Nurali. Dostonlar. –Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. –B. 46-117.
7. Jumanazarova G. Xalq dostonlaridagi o'xshatishning lengvopoetik imkoniyatlari. –Toshkent:Tafakkur, 2011.
8. Mahmudov N. O'xshatishlar va milliy obraz // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2013 yil, 1-son. – 3-8 –betlar.
9. Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik assimetriya. – Toshkent: O'qituvchi, 1984.
10. Mukarramov M. Ko'chimlarning o'zaro munosabati. //O'zbek tili va adabiyoti. Jurn., 1976, 5-son.
11. Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatishlar. –Toshkent: Fan, 1976.
- Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomli. 1-tom. –Toshkent: Fan, 1983.
12. Qo'ng'urov R., BegmatovE., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 1992.
13. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
14. Sodiqova M. “Chiqmoq” fe'lining semantik-stilistik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti, 1989, -№2 (4). -60-62-betlar.

15. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘xshatish. –Toshkent, 2003.
16. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. Filol. fanlari dokt... diss.- Toshkent, 2005.
17. Yormatov I. O‘zbek xalq qahramonlik eposi poetikasi. Filol. fanlari dokt... diss. avtoref. – Toshkent, 1994.
18. Yo‘ldoshev M. Cho‘lpon so‘zining sirlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
19. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tomli. 1-tom. –M.: Rus tili, 1981. 195-198-betlar.
20. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 1-jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti., 2006.
21. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 2-jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2007.
22. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 3-jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti., 2007.
23. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 4-jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2008.
24. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 5-jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2008.
25. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
26. Философский словарь. –М.: Полиздат, 1991.
27. Тихонов А., Кунгуров Р. Сравнения в русском и узбекском языках. Республиканская конференция по вопросам языкознания и методика преподавания иностранных языков. – Алма-Ата: Ан Каз ССР, 1964. -73 с.
28. Ефремов А.Ф. Сравнение как основная стилистическая категория и его роль в художественном произведении // Стилистика художест. речи. – М.: Просвещение, 1968.